

JANUARY-FEBRUARY  
**2021**

ROSTOV-ON-DON , RUSSIA



МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

**СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ  
РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ  
ПРОБЛЕМ**

Conference proceedings available  
at [virtualconference.press](http://virtualconference.press)



**Редакционная коллегия:**

**Узденов Расул Магомедович**

кандидат юридических наук, доцент, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

**Пржиленский Игорь Владимирович**

кандидат социологических наук, доцент кафедры уголовного права и процесса СКФУ

**Токмаков Дмитрий Сергеевич**

старший преподаватель кафедры уголовного права и процесса СКФУ

**Главный редактор**

**Долгополов Кирилл Андреевич**

кандидат юридических наук, доцент, заведующий кафедрой уголовного права и процесса Северо-Кавказский федеральный университет

Сборник тезисов научно-практической конференции г. Ростов-на-Дону. 2020г  
– 67 с.

DOI [http://doi.org/10.37057/R\\_4](http://doi.org/10.37057/R_4)

**Издательство не несет ответственности за материалы, опубликованные в сборнике. Все материалы поданы в авторской редакции и отображают персональную позицию участника конференции.**

**Типография Аспект**

## AGRICULTURAL SCIENCES

**Tashxodjayeva G.S**

USE OF EFFECTIVE METHODS IN THE CULTIVATION OF SOYBEANS..... 5

**Umurova Intizor Shuhrat qizi, Umarov Abiyr Toxir o'g'li,**

**Abdukarimova Munavvar Sobir qizi, Normurodov Ravshanbek Xo'jamberdi o'g'li**

“AVESTO” DA TUPROQ HAQIDA FIKRLARNING TALQIN QILINISHI..... 7

## BIOLOGICAL SCIENCES

**Rahmonova Nozima Zokirjonovna**

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN SALVIA SCLAREA O'SIMLIGINING

DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOQLIMIY MODELLASHTIRISH ..... 9

## ECONOMIC SCIENCES

**Б.Б.Адизов**

МОЛИЯВИЙ МУСТАҚИЛЛИК (ЎЗ-ЎЗИНИ МОЛИЯВИЙ ТАЪМИНЛАШ)

ШАРОИТИДА ОТМ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ..... 12

## HISTORICAL SCIENCES

**Nazirov Baxtiyor Safarovich, Xoliqova Nozima To'rayevna**

XIII ASR MANBALARIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSINING

YORITILISHI..... 15

## LITERATURE

**Sapoyeva Shaydo Iskandarovna**

ADABIYOT - ZAMON TALABI ..... 18

## MEDICAL SCIENCE

**Ergasheva Nigorkhon. Yu, Shukurova Umida. P**

FEEDING CHILDREN..... 20

**Juraeva Dildora. F, To'raqulova Dilfuza**

ASPHYXIA IN INFANTS..... 22

**Qurbonova Muxlisa, Avazniyazova Gulandon**

PEDIATRICS..... 23

**Sobirova Munisa. R, Hudeybergenova Lola. B**

RICKETS - CAUSES, STAGES, CLINICAL SIGNS AND PREVENTION ..... 24

**Toxtamatova Dilorom. O', To'laganova Nigora. M**

CALCIUM DEFICIENCY IN CHILDREN..... 25

**Ubaydullayeva Gulshoda, Adilova Aqida**

DISEASES OF THE GASTROINTESTINAL TRACT IN CHILDREN, THE CAUSES OF  
ULCERS IN THE STOMACH..... 28

**Асилова М.У., Исмаилова А.А., Назарова Ф.Н.**

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СПЕЦИФИЧЕСКОГО ГУМОРАЛЬНОГО

ИММУННОГО ОТВЕТА У ПАЦИЕНТОВ, ПЕРЕНЕСШИХ COVID-19 В

РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЕ..... 29

**Бекбаулиева Г.Н., Шакирова П.Д., Курбаниязова М.З.**

ХАРАКТЕРИСТИКА СОМАТИЧЕСКОЙ ПАТОЛОГИИ У ИНФЕРТИЛЬНЫХ

ЖЕНЩИН ..... 31

**Каюмходжаев А.А., Абабакиров Д.М.**  
ОСОБЕННОСТИ РЕКОНСТРУКТИВНОЙ ОТОПЛАСТИКИ ПРИ ДЕФИЦИТЕ  
МЯГКИХ ТКАНЕЙ ЗАУШНОЙ ОБЛАСТИ И ПРИ НИЗКОМ РАСПОЛОЖЕНИИ  
ГРАНИЦЫ РОСТА ВОЛОС ..... 33

**Фаттаева Д.Р., Ризаев Ж.А., Рахимова Д.А., Холиков А.А.**  
МЕДИЦИНСКИЕ АСПЕКТЫ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ БОЛЬНЫХ ПОСЛЕ COVID-19 С  
ХРОНИЧЕСКИМ ГАЙМОРИТОМ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ  
БОЛЕЗНИ ЛЕГКИХ..... 35

**Фаттаева Д.Р., Ризаев Ж.А., Рахимова Д.А., Холиков А.А.**  
ЭНДОТЕЛИАЛЬНЫЙ ДИСБАЛАНС ПОСЛЕ COVID-19 У БОЛЬНЫХ С  
ХРОНИЧЕСКИМ ГАЙМОРИТОМ В СОЧЕТАНИИ ХРОНИЧЕСКОЙ  
ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНЬЮ ЛЕГКИХ..... 36

**Якуббекова С.С., Исраилов Р.И.**  
МОРФОЛОГИЯ ОПУХОЛЕЙ ЯИЧНИКОВ ПОГРАНИЧНОГО ТИПА ..... 37

## **PEDAGOGICAL SCIENCE**

**Raximova Pmira Marksovnna, Karimbayev Valijon Amatjon o'g'li,  
Qadamov Qadamboy Hikmat o'g'li**  
THE ROLE OF YOUNG WOMEN IN THE MANAGING OF THE SOCIETY ..... 39

**Сайдалиева Феруза Хайритдиновна, Юсупова Санобар Хасановна**  
МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ В РЕШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО  
НАПРАВЛЕННЫХ ЗАДАЧ ШКОЛЬНОГО КУРСА МАТЕМАТИКИ. .... 41

## **PHILOLOGICAL SCIENCE**

**Abdullayeva Havoxon Sobirovna**  
UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA OGANIY HAYOTI VA IJODINI O'QITISH  
MUAMMOLARI..... 45

**Shokhzod Tursunboev**  
SPEAKING FOREIGN LANGUAGES IS NOT PROBLEM ANYMORE ..... 47

**Yo'ldoshev Islombek Bahrom o'g'li, Eshboyev Feruz Xusanovich,  
Soatova Pokiza Maxmud qizi**  
CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... 49

**Аминова Хаёт Гулямназировна**  
СИСТЕМА ИЗУЧЕНИЯ ИМЕНИ ПРИЛАГАТЕЛЬНОГО ..... 51

## **PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

**Д.Обидова**  
МИЯ ЯРИМШАРЛАРИ АСИММЕТРИЯСИ – ШАХСНИНГ КОГНИТИВ  
ХУСУСИЯТЛАРИНИ БЕЛГИЛОВЧИ МУҲИМ ОМИЛСИФАТИДА..... 53

**Мажидов Жасур Бахтиярович**  
ИҚТИДОР ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. .... 57

**Ҳайдарбек Ҳамдамов**  
ПСИХОЛОГИЯДА ШАХС ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИГИ МУАММОСИ..... 59

## **TECHNICAL SCIENCES**

**Jumaev Akbarjon Sayfullaevich, Juraev Anvar Juraevich,  
Dustova Mehriniso Parmanovna**  
DESIGN STRUCTURAL IMPROVED AND RESOURCE ROLLER SUPPORT BELT  
CONVEYOR ..... 64

**AGRICULTURAL SCIENCES****USE OF EFFECTIVE METHODS IN THE CULTIVATION OF SOYBEANS****Tashxodjayeva G.S**Assistant of Tashkent Institute of  
Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Soybean is a poor competitor with weeds when cool soil temperatures cause slow germination and growth but does compete effectively in warm soils when germination and growth are rapid. Soybean production requires good cultural practices. Prepare the seedbed prior to planting to kill germinating weeds. Management practices such as thorough seedbed preparation, adequate soil fertility, choice of a well-adapted variety, and use of good quality seed all contribute to conditions of good competition with weeds. A rotary hoe or harrow may be used to control weeds after planting but before the soybean emerge or after emergence when soybean are in the 1 to 2 trifoliolate leaf stage. Rotary hoe or harrow help activate PRE herbicides under dry conditions and increase weed control. The rotary hoe can effectively control weeds when ground is not trashy, lumpy or wet, and when weeds are emerging. Cultivation is most effective when soybean are slightly wilted during the warm part of the day, because the crop is less susceptible to breakage and weeds will desiccate quickly.

Poast (sethoxydim), Assure II/Targa (quizalofop), Fusilade DX (fluazifop-P), Select/Max\* (clethodim) applied post with oil adjuvant controls annual grasses and quackgrass. MSO oils have performed equal to petroleum-based oil additives. Retreat quackgrass when regrowth is 4 to 8 inches tall. Poast suppresses quackgrass. Most broadleaf herbicides tank mixed with POST grass herbicides will often reduce grass control compared to the grass herbicide applied alone. Addition of fertilizer may partially overcome antagonism from broadleaf herbicides. Reduced grass control can be avoided by applying the grass herbicide at least 1 day before or 7 days after application of a broadleaf herbicide. 'Dim' herbicides (Select\* and Poast) may leave a residue in the soil and injure corn and other grass crops if planted before 6 days after application. Grass crops may be planted 30 days after Poast\* or Select\* application. Select Max allows a 6 days interval only if applied at low rates - see label. Select\* is an ACCase inhibitor mode of action herbicide but has controlled ACCase resistant grasses. Do not overuse clethodim.

Basagran 5L contains 5 lbs ai/gal and generic bentazon contains 4 lb ai/gal and applied post at 0.5 to 1 qt/A controls many annual broadleaf weeds and suppresses Canada thistle. For greater broadleaf weed control, especially kochia, lambsquarters, redroot pigweed and wild buckwheat, apply bentazon as split treatments either twice each at 1 pt/A, 3 times each at 0.67 pt/A, or 4 times each at 0.5 pt/A as compared to one application at 2 pt/A. Make applications 7 to 10 days apart depending on weed growth rate, growing conditions, size of weeds at application, degree of weed control from first application, and sequential flushes. The first application must be made to small weeds (1 inch).

Apply bentazon at 1 qt/A to Canada thistle before bud stage and make a second application at 1 qt/A 7 to 10 days later. Sequential applications will provide greater broadleaf weed control than from a single application at full rates and can be used in all labeled crops. Apply with oil adjuvant at 1 to 2 pt/A (1 pt/A by air). MSO adjuvant has shown greater enhancement of bentazon than petroleum oil (COC) adjuvants but the cost of MSO is higher. Bentazon is safe to soybean at all stages. The total maximum seasonal use rate is 4 pt/A so the micro-rate can be increased if weeds are large at application or if sequential applications are delayed due to rain or wind. Refer to paragraph F6 in the dry bean section for more information.

Bentazon is commonly combined with fertilizer micronutrients that may cause incompatibility problems resulting in zinc precipitation. Chelated zinc materials (black in color) have greater incompatibility problems than unchelated material (clear). Recommendations to prevent precipitation are to fill sprayer with water, add bentazon and thoroughly agitate, then add zinc fertilizer material.

Dicamba controls most annual and perennial broadleaf weeds in glyphosate tolerant soybean. Weed control will vary based on rate, size of weeds, and adjuvants used. Refer to specific manufacturer web sites no more than 7 days before application for approved tankmixes and application information.

Dicamba will injure or kill many broadleaf plants/crops from either particle or vapor drift. Avoiding spray drift is the responsibility of the applicator. Do not apply when wind is blowing toward or when drift may occur to susceptible crops. Apply only labeled formulations of dicamba and follow best management practices to reduce drift.

Unabsorbed dicamba on plant tissue and soil may release vapors after dew and small rain events several days after application and injure susceptible crops. Applicators are required to be aware of proximity to susceptible crops. The applicator must survey areas surrounding application site and must consult susceptible crop registries for susceptible crops near the application site. Minute quantities of dicamba trapped in sprayers or bound to sprayer tank and components will cause injury to non-dicamba resistant soybean and many other susceptible crops. Closely follow label instructions for spray tank clean-out procedures.

Relative susceptibility of crops from dicamba drift:

- Low susceptibility: all small grains, canola, corn, flax, millet, triticale.
- Moderately susceptibility: alfalfa, buckwheat, potato, safflower, and tomato.
- Very high susceptibility: chickpea, dry bean, field pea, grape, lentil, sunflower, and sugarbeet.
- Extremely high susceptibility: non-DT soybean.

Dicamba resistant kochia biotypes have been documented in many states including North Dakota. Use herbicides with effective modes of action other than Group 4 in soybean and in rotational crops to delay resistance to dicamba. High dicamba rates and multiple soil and incrop applications of dicamba (alone) will greatly increase the development of dicamba resistant kochia and other broadleaf weeds similar to the development of glyphosate resistant weeds.

**“AVESTO” DA TUPROQ HAQIDA FIKRLARNING TALQIN QILINISHI**

**Umurova Intizor Shuhrat qizi**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi normurodov.oibek@mail.ru

**Umarov Abiyr Toxir o'g'li**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi normurodov.oibek@mail.ru

**Abdukarimova Munavvar Sobir qizi**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi normurodov.oibek@mail.ru

**Normurodov Ravshanbek Xo'jamberdi o'g'li**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi normurodov.oibek@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» tabiatni e'zozlash, uning jamiiki boyliklaridan, shu jumladan yerdan oqilona foydalanish, uni nes-nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan me'ros qoldirganligi haqida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** dunyoviy ilmlar, dukkakli, boshqoli ekinlar, tabiatni e'zozlash, tabiatni sevish, hunarmandchilik, chorvachilik, bog'dorchilik.

Tuproqshunoslik fan sifatida uncha katta tarixga ega bo'lmasada tuproq haqidagi dastlabki ma'lumotlar bundan 2-2,5 ming yillar oldin yuzaga kelgan. Qadimgi Xitoy va Misr, Hindiston va Vavilon, Armaniston, O'rta Osiyo va assuriyalik olimlar, faylasuflarning asarlarida uchraydi. O'sha davrlardayoq insonlar yerga solinadigan mahalliy o'g'itlar (go'ng, hojatxona axlati, turli chiqindilar, ohak) va shuningdek dukkakli, boshqoli ekinlar, ekinlar hosildorligini oshirishning muhim omili ekanligini tajribadan bilganlar. Qadimgi yunon olimlari va faylasuflari Aristotel (Arastu) va Teofrast asarlarida tuproq haqidagi dialektik qarashlar va g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi. Aristotelning shogirdi Teofrast (eramizgacha 372-287) ning «o'simliklar haqida tadqiqotlar» asarida tuproq xossalarini o'simliklarning talabi asosida o'rganish g'oyasi oldinga suriladi. Unda tuproq unumdorligiga ko'ra o'simliklarning turlari va navlarini tanlash, tuproqqa ishlov berish usullari haqida ko'plab ilg'or fikrlar aytilgan [1].

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hududda, ya'ni bizning vatanimizda, yana ham aniqrog'i, go'zal diyorumizning ajralmas bir qismi, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning qadimiy beshiklaridan hisoblangan Xorazmda «Avesto» dek mo'tabar kitob yaratilgan. «Eng mo'tabar, qadimiy qo'lyozmamiz «Avesto» ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti,- deydi mamlakatimiz yo'l boshchisi tarixchi olimlar bilan uchrashuvda. – Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy me'rosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi» [2].

Qadimgi manbalardan ma'lumki, bizning respublikamiz hududida dehqonchilik bilan mis asrida shug'ullana boshlashgan. Ammo o'sha qadim zamonlarda kishilar kanallar kovlamagan, suvdan esa daryolar toshgan paytda pastliklarni to'ldirish, tog' oldi joylarida esa tuproqdan maxsus yotqiziqlar yasab dalalarni sug'organlar.

O'zbekistonning qadimgi tarixini o'rganishda «Avesto» kitobi katta ahamiyatga ega. Unda tuproq dehqonchilik va chorvachilik haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Qator olimlar «Avesto»ning vatani Xorazm deb hisoblaydilar.

«Avesto»da tuproq gigienasi (tozaligi) ga katta e'tibor berilgan, tuproq ilohiy deb hisoblangan. Ushbu kitobda yer ona bilan tenglashtirilgan.

«Avesto» diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari Sharqda, Turon zaminda yaratilgani, sayqal topganidan, bu qadimiy va tabarruk tuproqda eramizgacha dexqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, bog'dorchilik madaniyati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Zardushtiylik kitobida insoniyat tirikligi va yashashining asosi Yerni e'zozlovchi, uni Allohning buyuk ne'mati tariqasida pokiza saqlashga, avaylab asrashga da'vat etuvchi g'oyalar,

qimmatli fikrlar va yo‘l-yo‘riqlar behisob.

Qadimiy Sharqda, Turonzaminda «Avesto» g‘oyalari ta‘sirida zaminni muqaddas bilish, tabiatni e‘zozlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik kabi xislatlarni madh etuvchi dostonlar, ertaklar, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, qayroqi so‘zlar, aforizmlar bor [3].

Yerni sevib, ardoqlash, uning qadriga yetish ajdodlarimizdan, Zardushtiylik va islom dinidan qolgan me‘rosdir.

Shuning uchun yerni sevmagan, unga butun borlig‘i bilan mexr qo‘ymagan biron-bir o‘zbek yo‘q, deb bemalol aytsa bo‘ladi. Ona zaminni astoydil sevish o‘zbeklar uchun iymon- e‘tiqod, yuksak odob, madaniyat, ma‘naviyatlilik va ma‘rifatlilik belgisi ekani Hamid Olimjonning «Men o‘zbek xalqi nomidan so‘zlayman!» nomli maqolasida o‘z ifodasini topgan. «Mening xalqim o‘z kindigining qoni to‘kilgan tuproqni o‘z onasiday aziz ko‘radi. Qadim o‘zbek botirlari uzoq safarga ketganda bir hovuch Vatani tuprog‘ini doim o‘z yonida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o‘zi tug‘ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida ichgan qasamini yodga solgan. Vatanga bulgan muhabbatini bir nafas ham unittirmagan. Bir hovuch tuproq unga o‘z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan, uzoq o‘lkalarda bo‘lsa ham, uni o‘z Vatani his qildirgan va qarda bo‘lmasin, xalqi sha‘niga isnod keltirmaslikka, o‘z xalqining nomusli sodiq o‘g‘li bo‘lishga chaqirgan. U Vatanni qancha sevs... ota-onadan, sevimli yordan, qadrdon Vatandan nishon bo‘lgan shu bir hovuch tuproqni ham shuncha sevgan. Shu bir hovuch tuproqning kuchi shuncha zo‘r bo‘lganki, u suvsiz saholardan, qorli tog‘lardan, vahshiy daryolardan, yovvoyi o‘rmonlardan ko‘z ochib yumguncha o‘ta olgan. Shu bir hovuch tuproq uni o‘tdan olib o‘tga tashlagan, lekin omon saqlagan. O‘q uning ko‘kragini tesholmagan, qilich tanasini chopolmagan, olov kuydirolmagan, zindon chiritolmagan» [4].

Bobokonlarimiz borliq tabiatni sevish, uni asrash, chiroyiga chiroy qo‘shish, yon-atrofni ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘larga aylantirishni ezgulik, ona-yerni sevish, ardoqlash deb tushunganlar.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» tabiatni e‘zozlash, uning jamiiki boyliklaridan, shu jumladan yerdan oqilona foydalanish, uning nes-nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan me‘ros qoldirdi. «Avesto» ta‘limoti hozirgi davr va kelgusi avlodlar uchun ham muhim yo‘l-yo‘riq, dasturilamaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Boboxo‘jaev, P. Uzoqov. «Tuproqshunoslik» Toshkent. «Mehnat» -1995.
2. M. Bahodirov, A. Rasulov. «Tuproqshunoslik» (maxsus muharrir Boboxo‘jaev), Toshkent. O‘qituvchi. 1975.
3. I. Boboxo‘jaev, P. Uzoqov. «Tuproqshunoslik» Toshkent. «Mehnat» -1995.

BIOLOGICAL SCIENCES

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN SALVIA SCLAREA O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOIQLIMIY MODELLASHTIRISH

Rahmonova Nozima Zokirjonovna

Qo'zibolayeva Dilnoza To'xtasinovna

Andijon davlat universiteti 2 bosqich magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida tarqalgan salvia o'simligining dorivorlik xususiyatlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** salvia, dorivor, asal-shirali, efir moyli, formatsiya, populyatsiya, fitotsenoz, qoplam, assotsiatsiya

**Аннотация:** В этой статье показаны лечебные свойства salvia широко распространенного в Ферганской долине

**Ключевые слова:** salvia, лекарственный, медоносный, эфирномасличный, формация, популяция, фитоценоз, покров, ассоциация

**Annotation:** At the valley of Ferghana spreat spice peculiarity plans of salvia was shown in this article

**Key words:** salvia, medicinal, essential oil, formation, population, phytocoenosis, cover, xerophilous, association

Mamlakatimiz hududi xilma-xil o'simliklarga boy bo'lib, ular orasida dorivorlik xususiyati bilan ajralib turadigan turlari ham ko'p uchraydi. Xalqimiz qadim zamonlardan tabiiy holda o'sadigan o'simliklardan dorivor maqsadlarda foydalanib kelganlar. Xozirgi kunda ham tibbiyot rivojlanib borgani sayin dorivor o'simliklarga bo'lgan talab ham kuchayib bormoqda. Ushbu maqolada tabiiy holda o'sadigan labguldoshlar (yalpizdoshlar) oilasining marmarak (*salvia sclarea*), tarqalishi, o'sish sharoiti, tuzilishi va dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Marmarak(mavrak, shalfey)-*Salvia L.* yasnotkaguldoshlar (labguldoshlar, yalpizdoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik va yarim butalarni o'z ichiga oladi. Bu oilaga kiruvchi deyarli barcha o'simliklar efir moyiga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi. Lotin tilida "salvara"-davolamoq degan ma'noni anglatadi. Salvia turkumining O'zbekistonda 17 turi bo'lib dashtlarda, maysazorlarda, ayniqsa O'rta Osiyo tog'larida, vohalarda, adirlarda uchraydi. Ularing ildizlari tuproqqa chuqur kirib borgan, ko'pincha yer osti sizot suvlarigacha yetgan, transpiratsiyani (suv bug'latish) jadal amalga oshiradigan, uzoq muddat suvsizlanishga chidamaydigan gemikserofit o'simliklar hisoblanadi. Marmarakni yaltiroq marmarak (*S.splendens*)-bir yillik o't, bo'yi 50-80 sm, poyasi tik o'sadi. Barglari uchburchakli nashtarsimon, iyun-oktabr oylarida gullaydi, gullari sariq rangda. Korolkov marmarak (*S.korolkovii*)-ko'p yillik o't, bo'yi 24-50 sm. Ildiz bo'g'zidagi burglar nashtarsimon uchi o'tkir, yashil tukli, iyun-avgust oylarida gullab urug'laydi, gullari siyohrang rangda xushbo'y marmarak (*S.sclarea*)-ko'p yillik o't, bo'yi 50-100 sm. Poyasi tik o'sadi, tepa qismidan shoxlangan, barglari yashil, ellipsimon-cho'ziq, yirik burmali, iyun-avgust oylarida gullab urug'laydi, ko'proq tog' mintaqalarida tarqalgan. Bundan tashqari marmarakning tikanli va cho'l marmaragi (zig'irak) kabi turlari ham bor. Tibbiyotda marmarakni bir nechta turidan foydalaniladi. Dorivor marmarak (*S. officinalis*) bargining damlamasi burishtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida, tomoq, og'iz va milk shilliq pardalari yallig'lanishida og'izni chayish uchun qo'llaniladi. Xushbo'y marmarak yoki muskat marmaragi (*S.sclarea*) yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'p yillik o't bo'lib, tog'larda o'sadi, bo'yi 20-120 sm bo'ladi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida C vitamin efir moylari  $\alpha$ -pinen, mirsen,  $\beta$ -otsimen, limonen, kamfen, sineol, kadinen bo'ladi. Bundan xalq tabobatida yurak tez urganda, darmonsizlikda, bezgak, stomatologiyada, kariesda, pulpitda, periodot buyrak kasalliklarini davolashda hamda ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Marmarak ekstarktidan tayyorlangan surtmasi va ekstraktining konsentranti-salmus teri kasalliklarini (masalan, psoriaz) ni davolashda

yaqshi natijalar beradi. Tikanli va cho'l marmaragining yer ustki qismining damlamasi yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarda hamda tomoq og'riganda chayish, ishtaxa ochish va istimada tashnalikni qondirish uchun ichiladi. Yer ustki tarkibida efir moyi oshlovchi moddalar ham bor. Mavrakdan xalq tabobatida foydalanish uchun, uning bargi bir yilda (gullagandan boshlab) uch marta qo'l bilan terib olinadi. Marmarak (*Salvia.L*) ning yana eng muhim xususiyatlaridan biri qadimgi Misrda uni ayollar bepushtligini davolashda tavsiya qilishgan.



1-rasm. A-*Salvia sclarea* umumiy ko'rinishi; B-bargi; C-poyasi; D-guli; E-urug'lari

Biz ekspeditsiyalarimiz natijasida muskat marmaragi (xushbo'y marmarak) (*salvia sclarea*) ni tuprog'i asosan tosh shag'alli bo'lgan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan xududlarda tarqalganligini aniqladik. Quyidagi jadvalda Namangan viloyati Chodaksoy xududida tarqalgan *salvia sclarea*ning o'sish kordinatalari keltirilgan.


**Qurama tizmasining Farg'ona vodiysi xududidagi qismida *Salvia sclarea* ning tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish.**

### Modellashtirish usullari

Chodaksoy xavzasidan tadqiqot obektining tabiiy sharoitda o'sish nuqtalarining aks ettiruvchi (Qurama tizmasi) 6 ta geografik kordinatalari aniqlandi. Geografik kordinatalar sonining ko'p bo'lishi modellashtirish sifatini oshiradi (Wisiz 2008). Ushbu tadqiqotda mavjud geografik kordinatalardan foydalanilgan holda *Salvia sclarea* Qurama tizmasining Farg'ona vodiysi hududidagi qismida tarqalishi modellashtirildi. Tadqiqotda Maximum entropy (MaxEnt version 3.4.1.; Phillips et al., 2006; Phillips and Dudik, 2008) barcha standartlari yordamida *Salvia sclarea* potensial tarqalishi modellashtirildi. Bioiqlimiy o'zgaruvchilar va RCP 8.5 (Representative Concentration Pathway) iqlim senariysi Worldclim 2.1 onlayn iqlim ma'lumotlar bazasidan yuklab olindi ([www.worldclim.org](http://www.worldclim.org)). Xaritalarni yaratishda ArcGIS (versiyasi 10.6.1) dasturidan foydalanildi.

### Olingan natijalar

MaxEnt dasturidan foydalangan holda Qurama tizmasining Farg'ona vodiysi xududidagi qismida *Salvia sclarea* ning o'sishi uchun optimal iqlim sharoitiga ega bo'lgan xududlar, hozirgi kun va 2070 yil uchun RCP 8.5 iqlim senariysi asosida modellashtirildi.



**1-rasm. Qurama tizmasining Farg'ona vodiysi xududidagi qismida *Salvia sclarea* o'sishi uchun optimal iqlim sharoitiga ega xududlar (Xaritada qizil ranglar optimal iqlim mavjud maydonlarni anglatadi.)**

### Adabiyotlar

1. Wisz M. S. et al. Effects of sample size on the performance of species distribution models // Diversity and distributions. – 2008. – T. 14. – №. 5. – C. 763–773.
2. Phillips S. J., Anderson R. P., Schapire R. E. Maximum entropy modeling of species geographic distributions // Ecological modelling. – 2006. – T. 190. – №. 3-4. – C. 231-259.
3. Phillips S. J., Dudík M. Modeling of species distributions with Maxent: new extensions and a comprehensive evaluation // Ecology. – 2008. – T. 31. – №. 2. – C. 161-175.

**МОЛИЯВИЙ МУСТАҚИЛЛИК (ЎЗ-ЎЗИНИ МОЛИЯВИЙ ТАЪМИНЛАШ)  
ШАРОИТИДА ОТМ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ.**

**Б.Б.Адизов**

Бухоро давлат университети,  
“Иқтисодиёт (тармоқлар бўйича)”  
мутахассислиги магистранти

**Калит сўзлар:** Молиявий барқарорлик, бюджет, молиялаштириш, такомиллаштириш, иқтисодий тараққиёт, инновацион,

**Ключевые слова:** Финансовая устойчивость, бюджетирование, финансирование, улучшение, экономическое развитие, инновацион,

**Keywords:** Financial stability, budgeting, financing, improvement, economic development, innovative,

**Аннотация:** Мақолада олий таълим муассасаларининг (Бухоро давлат университети-нинг 2020 йилдаги молиявий ҳолати мисолида) ўзини-ўзи молиялаштириш тизимида ўтиш имкониятлари ва таҳлил қилинган.

**Аннотация:** В статье анализируются возможности и переход высших учебных заведений (на примере финансового положения Бухарского государственного университета в 2020 году) на систему самофинансирования.

**Annotation:** The article analyzes the possibilities and transition of higher education institutions (on the example of the financial situation of Bukhara State University in 2020) to the system of self-financing.

Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев Олий мажлис ва халқимизга йўллаган бу йилги мурожаатномасида айтиб ўтилган олий таълим соҳасини ривожлантиришга хизмат қиладиган масалалар. Жорий йилда “Илм маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш” давлат дастурига мувофиқ янги Ўзбекистон барпо этиш бўйича барча соҳаларда қатий давом этириш, бу йил олий таълимга қабул параметрлари 2016 йилга нисбатдан 2.5 баробарга ўсди, ёшларимизни олий таълим билан қамраб олиш даражаси 9 фоиздан 25 фоизга етгазилди. Умуман, ҳар қандай жамият тараққиётида унинг келажак-гини таъминлайдиган ёш авлоднинг соғлом ва баркамол бўлиб вояга етиши халқ қилувчи ўрин тутди. Шу сабабли биз ислохотларимиз кўламини ва самарасини янада оширишда ҳар томонлама етук, замонавий билим ва ҳунарларни пухта эгаллаган, азму шижоатли, ташаббускор ёшларимизга таянамиз. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз йўлида катта марраларни қўйиб уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шу мақсадда олдинги 2020 йил 1 январдан бошлаб, тажриба-синов тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтган олий таълим муассасаларига қўшмча равишда янги 2021 йил юртимизда 30 та етакчи олийгоҳга ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, қабул квотаси ва молиявий масалаларини мустақил ҳал қилиш ҳуқуқи бирилиши таълим ва кадрлар тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги «Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтказиш тўғрисида»ги 967-сон қарорида Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 11 июлдаги ПҚ-4391-сон қарорига мувофиқ 2020 йилдан бошлаб таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасаларининг айрим бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига талаб юқорилиги ва молиявий барқарорлигини инобатга олиб, уларни босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтказишга розилик берилганлиги маълумот учун қабул қилинганлиги ва илмий педагогик салоҳияти юқори, молиявий фаолияти барқарор, моддий-техника базаси етарли даражада, таълим хизматлари бозорида бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига талаб юқорилигини инобатга олиб, 2020 йил 1 январдан бошлаб,

тажриба-синов тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтган 10 та олий таълим муассасасини йил якунлари бўйича иқтисодий ва таълим сифатидаги натижаларга эришилди.

Жумладан 2021 йил юртимизда 30 та етакчи олийгоҳга ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, қабул квотаси ва молиявий масалаларини мустақил ҳал қилиш ҳуқуқи бирилиши таълим ва кадрлар тайёрлашда, ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтиш қобилиятини белгилаш учун Бухоро давлат университетини (бундан кейин Бухду) 2020 йилги молиявий ҳолати ўрганилди ва тасдиқланган бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари бўйича 2020 йил харажатлар сметаси ва ижросини таҳлил қилганда қуйидагиларни кўриш мумкин.

Бухоро давлат университетига 2021 йил 1 январ ҳолати бўйича жами таълим олаётган 20899 нафар талабалар таълим олмақда. Талабаларни етук кадрлар этиб тайёрлаш мақсадида ўқитиш учун давлат бюджети ва ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳисобидаги харажатлар тўғрисида.

1. Университетнинг давлат бюджети томонидан молиялаштирилган маблағлар:

1.1. ДАРОМАДЛАР: 2020 йил харажатлар сметаси жами 43885,0 млн.сўмга тасдиқланган бўлиб, шундан профессор-ўқитувчи ва ишчи-ходимлар 323,75 штат бирлиги учун 20515,0 млн.сўм иш ҳақи фонди, 2-гурӯх харажатлари (ягона ижтимоий тўлов) 5089,4 млн.сўмга, 4-гурӯх харажатлари яъни моддий-техник базани мустаҳкамлаш, сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш харажатлари учун 899,5 млн.сўмга тасдиқланган.

1.2. ХАРАЖАТЛАР: 2020 йил молиявий йил давомида бюджет маблағлари ҳисобидан иш ҳақига 13731,1 млн.сўм, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 декабрдаги «Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларида илмий, илмий-педагогик ва меҳнат фаолияти билан шуғулланувчи илмий даражага эга ходимларга қўшимча ҳақ тўлаш тартиби тўғрисида»ги 1030-сонли қарори асосида илмий даражага эга бўлган профессор-ўқитувчиларга қўшимча тўловлар 1524,8 млн.сўм, 2-гурӯх харажатлари (ягона ижтимоий тўлов) 3590,0 млн.сўм, стипендия тўловлари 16641,0 млн.сўм, 4-гурӯх харажатлари яъни моддий-техник базани мустаҳкамлаш, сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш харажатлари учун 697,1 млн.сўм харажатлар амалга оширилган.

2. Университетда ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳисобига шакллантирилган даромадлар харажатлари тўғрисида:

2.1. ДАРОМАДЛАР: Бюджетдан ташқари маблағлари бўйича 2020 йил харажатлар сметаси жами 204359,3 млн.сўмга, шундан профессор-ўқитувчи ва ишчи-ходимлар 1513,75 штат бирлиги учун 67420,1 млн.сўм иш ҳақи фондига, 2-гурӯх харажатлари (ягона ижтимоий тўлов) 16693,2 млн.сўмга, 4-гурӯх харажатлари (сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш) 48607,7 млн.сўмга тасдиқланган.

2.2. ХАРАЖАТЛАР: 2020 молиявий йил давомида иш ҳақига 45120,4 млн.сўм, стипендия тўловлари учун 11868,0 млн.сўм маблағ, 2-гурӯх харажатлари (ягона ижтимоий тўлов) 10288,6 млн.сўм, 4-гурӯх харажатлари (сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш) 32432,2 млн.сўм харажатлар амалга оширилган. Шундан моддий рағбатлантириш жамғармаси ҳисобидан профессор-ўқитувчилар ва ишчи-хизматчиларга 3846,7 млн.сўм маблағ сарфланиб. Ўзбекистон республика вазирлар маҳкамасининг 2020 йил учун ўзбекистон республикаси давлат бюджетининг барқарорлигини таъминлаш ва харажатларини мақбуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида 2020 йил 21 сентябрдаги 575-сон қарори талабларини бажариш мақсадида давлат бюджети томонидан моддий рағбатлантириш жамғармасига молиялаштирилган маблағлар пандемия даври муносабати билан 967,3 млн.сўм маблағ давлат бюджетига қайтарилган.

Қўшимча таълим хизмати ва сервис кўрсаткичлари 2020 йилда 300 млн.сўм режалаштирилган бўлиб, ҳақиқатда 142.6 млн.сўмни яъни 47.3 фоизни ташкил этган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 августдаги «Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4815-сонли қарорида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида университетда таълим олаётган ногирон, етим, чин етим ва ижтимоий ҳимояга мухтож «Темир дафтар»га киритилган оилалар фарзандларига жами 377 нафар талабаларга 287,0 млн.сўм миқдорда моддий ёрдам кўрсатилган.

3. Университетда 2021 йил 1-чораги давомида бюджет ва бюджетдан ташқари даромадлар ва харажатлар сметаси тасдиқланганлиги тўғрисида:

3.1. Бюджет маблағлари ҳисобидан: Жами 13882,9 млн.сўм (шундан иш ҳақи, илмий даражага эга бўлганларга устама ва стипендияга 12641,7 млн.сўм, иш ҳақидан ажратма

1238,0 млн.сўм, чин етим талаба харажатларига 2,1 млн.сўм)

3.2. Тўлов-контракт маблағлари ҳисобидан: Жами 71869.3 млн.сўм (шундан иш ҳақи ва стипендияга 21345,8 млн.сўм, иш ҳаққидан ажратма 4064,0 млн.сўм, бошқа сақлаш харажатларига 58 292.8 млн.сўм)

Бухдунинг бюджет ва бюджетдан ташқари ҳисоб рақамлари бўйича жами даромадлари 248244.3 млн.сўмни ташкил қилиб, харажатлари эса 136149.9 млн.сўм. Бухоро давлат университети 2021 йил 1 январ ҳолатига 112094.4 млн.сўм қолдиқ мавжуд. Юртбошимиз айтганларидек 2021 йил юртимизда 30 та етакчи олийгоҳга ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, қабул квотаси ва молиявий масалаларини мустақил ҳал қилиш ҳуқуқи бирилиши таълим ва кадрлар тайёрлашда, ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтиш қобилиятини белгилашда Бухдунинг молиявий имкониятлари етарли.

Олий таълим муассасасининг молиявий мустақиллик (ўз-ўзини молиявий таъминлаш) шароитида фаолиятини ташкил этиш учун моддий-техник таъминотини мустаҳкамлаш бўйича қуйидаги тадбирлар амалга ошириш зарур. Меҳнатга ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш, молиялаштиришнинг самарали ва шаффоф механизмларини ишлаб чиқиш, иқтисодиёт тармоқларининг кадрларга бўлган эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда, шунингдек истиқболда олий таълим муассасаларининг рейтинги ва ўз харажатларини қоплаш даражасидан келиб чиқиб бакалаврият таълим йўналишлари (магистратура мутахассисликлари) бўйича тўлов-контракт миқдорларини мустақил белгилаш тизимига ўтилиши лозим. Олий таълим муассасаларининг таълим хизматлари экспорти ва қўшимча хизматлар кўрсатишга зарур. Қурилиш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш ишларини замона талаблари асосида ташкил этиш, ушбу жараёнда инновацион технологияларга асосланган, ресурстежамкор ва тез барпо этиладиган конструкция ва материаллардан фойдаланиш бўйича илғор технологиялар ва муҳандислик ечимларини қўллаш бўйича ишлар олиб бориб олий таълим муассасаларини замонавий дастурий маҳсулотлар билан таъминлаш, ўқув ва илмий жараёнларни ўқув ва лаборатория ускуналари, шунингдек лаборатория материаллари (реактивлар, кимёвий идиш, бутловчи, биологик материаллар ва бошқа объектлар) билан мунтазам равишда зарур миқдорларда таъминлаб боришнинг самарали механизмларини яратиш устида ишлар олиб борилиши лозим.

Молиявий мустақиллик шароитида Олий таълим муассасаси фаолиятини ташкил этишда юқоридаги кўсатиб ўтилган ва бошқа ривожланишга хизмат қилувчи омиллар асосида иш юритилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ривожланиб борган сари билимга асосланган замонавий ишлаб чиқариш ва жамият ривожланиши интеллектуал меҳнат учун янги, тез ўзгарувчан бозорни шакллантиради. Олий таълим муассасалардан доимий равишда илғор билим соҳаларида илмий тадқиқотларни ривожлантириш, ўқув дастурлари ва технологияларини ўзгартириш ва такомиллаштириш, жиҳозларни модернизация қилиш, ўқитувчилар малакасини ошириш талаб этилади. ОТМлар ташқи муҳит талабларига муносиб жавоб беришлари учун янги инновацион ривожланиш йўлига ўтишлари, таълим бозорини кузатиб боришлари ва баъзи ҳолларда уни ўзлари шакллантиришлари зарур.

Хулоса қилиб айтганда ҳозир кунда салоҳиятли олий таълим муассасаларини танлаб юртимизда 30 та етакчи олийгоҳга ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказиш тартибини жорий қилинишига Бухоро давлат университети ўзини-ўзи молиялаштиришга ўтиб иқтисодий тарраққиёти ва молиявий барқарорлигини таъминлайди. Республика ҳамда хорижий олий таълим муассасалари ўртасида рақобатбардошлигини таъминлаш имконияти мавжуд.

### **Фойдаланган адабиётлар.**

1. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев Олий мажлис ва халқимизга йўллаган 2020 йил 29 декабрдаги мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 21 сентябрдаги “2020 йил учун ўзбекистон республикаси давлат бюджетининг барқарорлигини таъминлаш ва харажатларини мақбуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 575-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4969867>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 августдаги «Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ 4815-сон қарори. <https://lex.uz/ru/search/nat?actnum=4815>

4. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги “Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказиш тўғрисида”ги 967-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4628440>

HISTORICAL SCIENCES

XIII ASR MANBALARIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSINING YORITILISHI.

**Nazirov Baxtiyor Safarovich,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi  
Telefon:+998( 99) 677 60 22,  
baxtnazir-1@mail.ru

**Xoliqova Nozima To'rayevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
Telefon:+998( 93) 683 94 12

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIII asr tarixiy manbalarida xalqimizning mard, jasur farzandi, buyuk sarkarda, Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati, mug'ullarga qarshi olib borgan kurashi tarixi yoritib berilgan. Shu jumladan Jaloliddinning shaxsiy sifatлари, fe'l-atvori, harbiy mahorati haqida tarixchi olimlar Nasaviy, Ibn al-Asir, Mirxond, Mirzo Ulug'bek, Hofiz Abrularning asarlarida keltirilgan ma'lumotlar asosida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rusudan, Mirxond, Alovvuddin Qayqubod, Qush Temur, Ibn Xurmil, Al-Ashraf, Mengburni, Juzjoni, Ko'niya, Guruziya, Tiflis, Kirmon, Sind, lashkarboshi, totorlar, qipchoq, savdogar, ismoiliy, Ravsat us-safo, kotib, xojib.

**Annotation:** The historical sources of the XIII century cover the life of Jaloliddin Manguberdi, a brave, courageous son of our people, a great commander, the history of his struggle against the Mongols. To this end, Jalaliddin's personal qualities, character, and military skills are discussed in the works of historians Nasavi, Ibn al-Asir, Mirkhand, Mirzo Ulugbek, and Hafiz Abru.

**Keywords:** Rusudan, Mirkhand, Alovvuddin Qayqubod, Kush Temur, Ibn Khurmil, Al-Ashraf, Mengburni, Juzjani, Konya, Guruziya, Tiflis, Kerman, Sind, military leader, Tatars, Kipchak, merchant, Ismaili, Ravsat usus -safo, secretary, hajib.

**Аннотация:** Исторические источники XIII века охватывают жизнь Джалалидина Мангуберди, храброго, мужественного сына нашего народа, великого полководца, историю его борьбы с монголами. С этой целью личные качества, характер и военные навыки Джалалидина обсуждаются в трудах историков Насави, Ибн аль-Асира, Мирханда, Мирзо Улугбека и Хафиза Абра.

**Ключевые слова:** Русудан, Мирханд, Аловвуддин Кайкубод, Куш Темур, Ибн Хурмил, Аль-Ашраф, Менгбурни, Джузджани, Конья, Гурузия, Тифлис, Керман, Синд, военачальник, татары, кипчак, купец, исмаилиты, Равзат-ус-Сафо, хаджиб.

Odamzod faqatgina bugungi hayoti bilan yashamaydi, uning qalbini ertaning umidi ham o'ylantirishi aniq. Aslini olib qarasa bugunimiz ham kelajagimiz ham o'tmishdan andoza oladi. O'tmishda ozodlik uchun kurashgan bobolarimizdan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi kabi ko'plab tarixiy shaxslarni bilamiz. Shulardan biri Jaloliddin Manguberdi bobomiz qahramonliklari bilan barchani lol qoldirgan. Muhtaram prezidentimiz tomonidan bu buyuk shaxsga e'tibor sifatida 1998- yil 800 yilligini nishonlash to'g'risida farmon berdilar. Bundan maqsad buyuk shaxs haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash yanada kelajak avlodga tanishtirish edi. Jaloliddin Manguberdi haqida arab, turk, yevropa manbalarida ko'plab ilmiy asarlar yozilgan.

Buyuk shaxs haqida XIII asrdan boshlab yozilgan asarlarni sanasak juda ko'p. Jumladan: Ibn al-Asirning "al-Komil fit-tarix" (Tarix haqida mukammal kitob 1230-yil), Juvayniyning 3 jildli "Tarixi jahonkusho"(Jahon fotixi tarixi 1200-yil), Rashididdin Fayzullohning "Jome at-tavorix", Juzjoni "Tabaqati Nosiriy", Mirxondning "Ravzat us-safo", Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni" (Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimai holi 1241-yil).

Eng qimmatli manba hisoblangan asar kotibi, do'sti bo'lgan Nasaviyning asaridir. Bu asar

1218 –yildan 1231-yilga qadar voqealarini aks ettirgan bo'lib, arab tilida yozilgan, arab nusxasi Parijda, Qohirada, Tehronda chop etilgan. Bu asarda Jaloliddin Manguberding hayoti, olib borgan yurishlari, Chingizxonning bosqini, Eron, Iroq Ozarbayjon, Guruziya davlatlarida bo'lgan voqealar haqida ma'lumot beradi. Undan tashqari Turkon xotin qarshiliklari, Jaloliddinning Guruziyaga yurishi, Bog'dod xalifasining bo'ysunmasligi, saltanatning ichdan yemirilishi yoritib berilgan.

Nasaviy Jaloliddinni fe'l-atvorini tasvirlar ekan: U bug'doyrang, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik, yuvosh, muloyim, jahldor emas, haqoratimiz so'zlarni aytmasdi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, insonlarning og'ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo o'sha vaqtdagi qonunlar buni asoslamas edilar, o'zini Sulton deb chaqirishlarini buyurgan. [1. 296-b].

Hatto Jaloliddin Manguberdinining harbiy mahoratini Amir Temur mahoratiga taqqoslaydilar. Buning dalili sifatida mashhur tarixchi Hofiz Abruning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'ariy" asarida keltirilishicha: Temurning Hindiston safaridan qaytib, Gurjiston sarhadlariga yurish qilishida Jaloliddinning ildamligini eslaydi. Bu vaqtda Jaloliddin Chingizxondan yengilib, Hind borib ikki yil yashaydi, biroz muddat o'tgandan keyin, Kirmon shahri yo'li bilan Iroqqa kelib, Tiflis hududiga boradi. Buni muallif shunday baho bergan: "Sultonning azmi Hindning odimini uzib, ikkinchi Eronning narigi tomoniga ham o'tgan". [2, 63-65 b] Bundan ko'rinib turibdiki, Jaloliddin juda mahoratli sarkarda bo'lgan.

Jaloliddinning harbiy yurishlari haqidagi manbalardan yana biri bo'lgan mashhur tarixchi Mirxondning "Ravzat us-safo" asari hisoblanadi. 1223-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Sulton Muhammadning validasi qipchoq urug'idan bo'lgan Turkon xotun Jaloliddinni taxtga o'tirishiga qarshi bo'lgan. Chunki u qipchoq urug'idan bo'lgan, sultonni onasi esa turkman bo'lgani uchun munosabatlar yaxshi bo'lmagan, shu uchun taxtga o'zining urug'idan bo'lgan O'zlog'shoxni taxtga o'tqizadi. U Jaloliddinning taxtga o'tirishidan ko'ra Chingizxonga bo'ysunishni afzal ko'radi, Dastlab mo'g'ullar bilan yaxshi aloqada bo'lgan Turkon xotun, keyinchalik ularga asir tushadi. Jaloliddin vatanni sotishdan ko'ra dushmanga taslim bo'lganini afzal biladi. Kuchlar nisbatan kamligidan 1221-yil 9-dekabr kuni Sind daryosini kechib o'tishga qaror qiladi. Lekin o'n gaz pastlikdagi tik jarga tushishning imkoni bo'lmagandan so'ng, jang qilishga majbur bo'ladi. O'ng qanotni ishonchli shaxslardan Temur Malikka, markazni esa 7000 kishi bilan o'zi boshqaradi. Chingizxon Jaloliddinni tiriklay tutib kelishni buyuradi. Jaloliddin fors otabegisi Sad ibn Zangiy qizini sevib qolgan, u bilan baxtli hayot kechirishgan. Ammo kuchlari zaif bo'lgan sulton qarshilik befoyda ekanini sezib onasi Oychechakni, xotini va bola-chaqalarini jar yoqasidan tashlashga buyruq beradi. Jahl bilan vujudi azobda ayniqsa yetti yoshli o'g'lining mo'g'ullar tarafidan fojeali o'ldirilishi yanada dushmanlik qasosini olishga undaydi. Dushman safini vafodor oti bilan yorib o'tib, tik jardan daryo ustiga ot soladi va daryo girdobi bilan olishib qirg'oq yuziga chiqib oladi, izidan askarlari ham suzib o'tishadi. Shunda Jaloliddin qirg'oq ustida turib mushtini ko'rsatgan va qasos olishini aytgan. Chingizxon yana bir bor mahoratiga qoyil qolib: Otadan o'g'il tug'ilsa, mundog' o'g'il tug'ilsin deya hayratda qolgan. Jaloliddin dushmanni yengish uchun qo'rqitish usulidan ham foydalangan. Sulton o'n uch yoshida otasi bilan harbiy safarga chiqqan. Chingizxonga qarshi esa o'n yetti yoshida kurashgan. [2]

Jaloliddinni oilasi, bola –chaqasi, onasi, dushmanga asir bo'lib ketgan singlisi Xon Sulton o'ylovlari uni tark etmasdi. Jang vaqtida asir tushgan Xon Sultonni Chingizxon o'g'li Jo'jixonga nikohlab beradi. Xon Sulton akasiga shunday maktub yozadi: "Sening qudrating, shon-shuxrating xoqonga yetib bordi, Jayhun yerlarini senga berishmoqchi, ammo kurashib yengishingga ko'zing yetsa kurash, bo'lmasa taslim bo'l va sulh imzola". [3, 39-41b].

Jaloliddin Manguberdi ba'zi manbalarda Mengburni holida ham aytiladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida aytilishicha "meng" ya'ni yuzdagi xol tarzida bo'lib, shu uchun Mengburni nomi bilan ham atalgan, ammo mahalliy tilga moslashib Manguberdi deb atala boshlagan.

Jaloliddin juda haqqoniy adolatli sarkarda bo'lgan, o'z yaqinlariga ham shafqat qilmagan. Sulton Isfahonda bo'lgan vaqtda bir voqea yuz beradi. Ukasi G'iyosiddinni o'sha vaqtda ahvoli og'ir bo'lgani sabab ko'plab qullari uni tark etadi, ularni Ibn Xurmil o'z qo'shiniga olib oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. Bir davrada o'tirishgan vaqti G'iyosiddin mast bo'lib qolib qullarini so'raydi. Shunda Ibn Xurmil qullarni kim qornini to'yg'izsa o'shanga jang qilishini aytadi. Bu gapidan G'iyosiddin juda g'azablanadi. Sulton Ibn Xurmilga mastligini davradan ketishini buyurganda u turib ketgan edi. Izidan G'iyosiddin ham borib eshigidan kirolmagach,

tunda tomdan kirib, uni pichoqlab o'ldiradi. Bundan xabar topgan Sulton juda ko'p yig'laydi, chunki yaqin insonlari ichida eng yaqin insoni, o'ziga do'stdan ham yaqin olib hurmat qilardi. Ukasining bu qilmishini kechirolmay qoziga murojaat qiladi. Uning taqdirini xoh qamalishini, xoh jazolanishini qoziga qo'yib beradi.

Sulton Iroqda ekanligida totorlardan(mo'g'ullarni shunday ataganlar)qochgan bir xorazmlik allomalar yetakchisi Sakkokiy nomidan xabarni yetkazadi. Sakkokiy juda ilmli shaxs bo'lgan, barcha yulduzlar joylashuvini yaxshi bilgan, ko'plab mukammal asarlar yozgan. Xorazmshoh va Turkon xotun davrida munajjimlik sohasida faxrli o'rinlarni egallagan. Bog'dodga yurishida Sakkokiy sehrdan saqlaguvchi bir shaklni Xorazmshohga yasab bergan, ammo buning vaqti o'tganini vaqti o'tgach zararli tarafga ishlashini, uni Mujridin topib yoqib yuborishini aytib yuborgan edi. Mujridin borib bu shaklni ancha qidiradi, lekin topolmaydi. Sulton qaysi mamlakatni sehr jodu halokatdan qutqargan deya bu voqeaga ishonmaydi. Olloh o'zi xohlagan narsalarni o'chirar va ustivor qilar degan mazmunli fikrlar bildiradi.[1, 182-184 b]

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jaloliddinga qarshi noroziliklar, Turkon xotunning qarshiliklari bo'lmaganida, taxtga vaqtida o'tirganida yurtimiz mo'g'ul degan bosqinchilar zulmidan omon qolar edi. Jaloliddinning eng katta orzusi yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish va oq otida Urganchga kirib borish edi. Yana bir orzusi Chingizxon bilan yakkama-yakka jang qilish edi. Chingizxonning o'limidan xabar topgach juda afsus chekadi. Jaloliddin kelajak avlod uchun tarixda o'chmas iz qoldirdi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Shixobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. Kamol Matyoqubov Tarjimasi. Toshkent. "O'zbekiston" 2006. 296-bet.
2. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. Ma'sul muharrir M.M. Xayrullayev. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 1999. 63-bet.
3. Sodiqov Hamdam. Sulton Jaloliddin Manguberdi. "ART FLEX" Toshkent-2009. 36-bet
4. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 1999.
5. Ahmedov. B. Tarixdan saboqlar. Toshkent. 1994.
6. Bunyodov. Z. M. Anushtegin –Xorazm davlati. Toshkent. 1998.

LITERATURE

ADABIYOT - ZAMON TALABI

Sapoyeva Shaydo Iskandarovna  
Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani  
XTB ona tili va adabiyot fani metodisti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi adabiyotimizning saviyasi, undagi muammo va kamchiliklar haqida fikrlar berilgan. Bugungi avlodning telefon, internet va ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketishi, tom ma'noda ularga qul bo'lib qolishi, bu qullikdan esa ularni adabiyot qutqarishi mumkinligi takidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, zamon, virtual olam, globallashuv, ma'naviyat, tanazzul, qullik, internet.

Bugun biz shiddat bilan rivojlanib borayotgan, o'ta dolzarb va murakkab bir zamonda yashar ekanmiz, hayotimiz ancha tahlikali vaziyatlarga to'la. Ayniqsa, butun dunyo globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur ildiz otib bormoqda. Albatta, har bir jarayonning ham o'ziga yarasha salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Lekin globallashuv jarayonisiz ham yashab bo'lmaydi, uning salbiy jihatlari o'ylab o'z qobig'imizga o'ralib qolishimiz ham bizni tanazzulga yetaklaydi. Ammo mazkur davrda globallashuv jarayoni insoniyat mafkurasiga bir qator salbiy ta'sirini ham o'tkazmasdan qolmadi. Ana shunday dolzarb masalalardan biri adabiyotimizning o'z saviyasidan tushib ketayotganligidadir. Bugun adabiyotni anglash uchun uning asl mohiyatini tushunish darkor. Zero, adabiyot butun bir olamni o'zida jamlay oladigan, kishi nazar solganda asliyatini topa oladigan ko'zgudir! U shunday ko'zguki, har qaraganingda o'zligingni anglash uchun imkon beradi, har qaraganingda yangicha, bir- birini to'ldirib boradigan qiyofa aks etaveradi. Qancha yuksalganing sari shuncha yuksaltiraveradi! U aslida qiyofalarni emas qalblarni aks ettiradi, zohirni emas, botinni anglashga undaydi. Adabiyot tom ma'noda insonni, uning botinini anglash va tushunish san'atidir. Shu bois bo'lsa kerak, inson adabiyotga, go'zallikka ehtiyoj sezaveradi. Adabiyot esa go'zallikka, buyuklikka intilishdir.

Таъкидлаш жоизки, Х.Джексоннинг доминантлик ғоясини ишлаб чиқиши француз хирурги ва антропологи Поль Броканинг нутқ функциялари асимметриясини кашф этиши билан бир вақтга тўғри келди. 1861 йилда Париж антропология жамиятининг йиғилишида у ўзининг мияси зарарланган беморларда олиб борган кузатиш натижаларини тақдим этди. Олимнинг олиб борган кузатиш натижаларига кўра мия чап яримшари зарарланганидан сўнг беморларнинг сўзлашиш қобилияти йўқолганлиги (мотор афазия феномени) аниқланди. Қизиғи шундаки, ўнг яримшар зарарланганда бундай ҳолат кузатилмаган. Поль Брока ушбу кузатишларига асосланиб нутқ марказининг чап яримшарда жойлашганлиги ҳақидаги хулосага келган. Поль Брока томонидан топилган бу нутқ марказига “ҳаракатли нутқ маркази” номи берилган. Тилдан фойдаланиш қобилияти бузилмагани ҳолда нутқ товушларини талаффуз қилишда қийинчиликларни бошдан кечириш ҳолати эса Брока афазияси номини олган.

Кўп ўтмай, 1874 йилда немис невропатологи Карл Вернике мия чап яримшарининг чакка қисмида яна бир нутқ марказининг мавжудлигини аниқлади. Ушбу марказнинг зарарланиши товушларни талаффуз қилиш қобилиятига деярли ҳеч қандай таъсир кўрсатмаган, аммо беморларда нутқ мазмунини тушуниш қобилиятининг бузилишига олиб келган. Бу марказ “сенсорли нутқ маркази” деб аталган бўлиб, унинг зарарланиши Вернике афазияси деб номланувчи нутқий бузилишни келтириб чиқаради.

Бир қанча йиллар давомида тўпланган экспериментал маълумотлар ва беморларни кузатиш натижаларидан олимлар шундай хулосага келдиларки, инсон миясининг ўнг яримшари ҳам шунчаки пассив, қўшимча, иккинчи даражали бир тузилма эмас, балки (худди чап яримшар сингари) бир қатор муҳим, ўзига хос вазифаларни бажарар экан. Шу жумладан, вербал ва новербал маълумотларни қайта ишлаш жараёнлари миянинг ўнг ёки чап яримшарлари томонидан алоҳида тарзда бошқарилади, деган нуктаи назарга ҳам шубҳа билан қарашга олиб келган кўплаб далил-исботлар пайдо бўлди.

Бу фикрга қарши ғояни илгари сурган айрим муаллифлар аниқ предметларни ифода этувчи, яъни ёрқин тасаввурларни ҳосил қилувчи сўзларни таниш ва англашда миянинг ўнг яримшари нисбатан устунлик қилишини таъкидлайдилар. Айрим тадқиқотларда эса вербал материалларни таҳлил қилишда нафақат чап томонлама асимметриянинг мавжуд эмаслиги, балки айри вазиятларда ҳатто ўнг яримшарнинг устунлик қилиши ҳам қайд этилган.

Айрим олимлар мия яримшарларнинг фарқланиши, унинг маълумотларни турли тарзда таҳлил қилишлари асосида юзага келади, деган хулосага келганлар. Бошқача қилиб айтганда, мия чап яримшаривербал маълумотларни таҳлил қилишда, фонологик принципга таянади, ўнг яримшар эса, маълумотни “гештальт” принципи орқали бутунлигича қабул қилади.

Маълумки, психик функциялар етилишининг энг умумий нейрофизиологик кўрсаткичи сифатида уларнинг мия яримшарлари пўстлоқ қавати ва пўстлоқ ости бўлимлари орасида

таксимланишини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади. Айтиб ўтиш жоизки, миянинг чап ва ўнг яримшарлари, нутқ фаоллигида ҳам иштирок этишади.

Айрим мутахассисларнинг фикрича, нутқ пайдо бўлишида иккала яримшарларни боғлаб турувчи қалқонсимон тананинг етилиши катта аҳамиятга эга.

Линнеберг фикрига кўра, онтогенезнинг дастлабки босқичларида нутқ функцияларини амалга оширишда ҳар иккала яримшар барабар иштирок этади. Атроф-муҳит ва таълим-тарбия таъсири оқибатида тил функциялари ва нутқ фаолияти секин-асталик билан чап (доминант) яримшарга йиғилиб боради.

Э.Г.Симерницкая томонидан ўтказилган бир қанча тадқиқотлар, бош мия яримшарлари орасида функционал асимметрия дастлаббалбаттау ёки бу даражада мавжуд бўлиши, аммо онтогенетик тараққиётда бу каби жараёнларнинг миядаги бошқарилуви ўзгармай қолмаслигини кўрсатди, шунингдек, бош миянинг турли бўлимларида зарарланиш кузатилган болалар ва катталар билан ўтказилган комплекс қиёсий тадқиқотлар мия яримшарларининг функционал ихтисослашуви содир бўлишини аниқлади. Бунда, катта ёшдаги кишилар миясининг қайси бўлими зарарланишидан қатъи назар, қисман бўлса-да гапириш функциясига таъсир ўтказди, болаларда эса, нутқий нуқсонлар асосан доминант яримшардаги нутқ марказида зарарланиш оқибатида келиб чиқиши мумкин эканлиги ўз исботини топди.[4]

Мия яримшарларининг нутқ соҳаси бўйича ихтисослашувига доир назарий ёндашувларнинг хилма-хиллигига қарамай ғояларнинг аксарияти болалик даврида нутқий фаолиятда ўнг яримшарнинг устивор аҳамият касб этиши ҳақидаги тасаввурга асосланади.

Мия ўнг яримшарининг инсон ҳаётидаги ўрнини ва унинг вазифасини биринчилардан бўлиб, нейрохирург Роберт Сперри аниқладива ўтказган илмий тадқиқотлари учун 1981йил Нобел мукофотига сазовор бўлди. Роберт Сперри ҳамкасблари билан биргаликда, миянинг ҳар бир яримшарибир-биридан айротарзда маълумот қабул қиладиган махсус тестлар ва техник ускуналар яратди. Бу методларинсонларда чапақайлик ёки ўнақайлик даражасини аниқлашга ҳам ёрдам берган.

Дж. Леви берган маълумотларга қараганда, барча одамларнинг 89 фоизи ўнақайдир. Шуларнинг 99,7%ида миянинг чап яримшари нутқ фаолиятида устунлик қилади. Бироқ бир гуруҳ клиник тадқиқотларнинг гувоҳлик беришича, қўл устунлиги ва нутқ фаолияти ҳар доим ҳам айни бир яримшарнинг фаоллигига боғлиқ бўлавермас экан. Айрим тадқиқотлар натижаси эса шуни кўрсатадики, чапақайларда мия яримшарининг доминантлиги камроқ ифодаланган бўлиб, уларнинг мияси етарли даражада латеризациялашмаган бўлар экан.

Мутахассислар орасида чапақайликнинг ана шундай генетик омилларга боғлиқлиги ҳақидаги тасаввурлари билан бирга унинг патологик келиб чиқишга эга эканлиги ҳақидаги фикрлари ҳам кенг тарқалгандир. Бошқача қилиб айтганда, чапақайлик “мия минимал нуқсонлари” оқибатида юзага келади.

Мия функционал асимметриясиюзасидан иш олиб борган олимлар мия чап ва ўнг яримшарида патологияси бўлган беморларда ўтказилган экспериментал тадқиқотлари натижаларига таяниб, мия функционал асимметрияси муаммосини ўрганиб чиқади.

Мия функционал асимметрияси концепцияси турли муаллифлар томонидан турлича изоҳланади. Масалан, Л.И.Вассерман ўз ишида шундай фикр ва мулоҳазалар келтиради: “Кузатув натижаларимиячап яримшарининг зарарланиши, унинг маълумотни таҳлил қилиш (анализ) қобилятининг бузилишига, ўнг яримшар зарарланиши эса маълумотни қайта тиклашнинг (синтез) бузилишига олиб келади, деган фикрнотўғри эканлигини кўрсатди”. Олимларнинг таъкидлашларича, анализ ва синтез функцияларининг бузилиши, у ёки бу мия яримшаринингпатологиясига боғлиқ бўлмаган ҳолда вужудга келиши мумкин. Шу ўринда Л.И.Вассерманнинг дихотомия классификациясини кўриб чиқишимиз мумкин. Бу дихотомиялармия чап ва ўнг яримшарларининг маълумотни қайта ишлаш жараёнидаги ўзига хос хусусиятларини ифодалайди:

- 1) оддий ва таниш таъсиротларни идрок этишда чап яримшар устунлик қилса, қийин ва нотаниш таъсиротлар идрок этилишида ўнг яримшар фаоллиги ортади;
- 2) вақтни идрок этиш чап яримшар фаолияти билан боғлиқ бўлса, фазони идрок этиш функцияси кўпроқ ўнг яримшарга тегишли;
- 3) маълумотларни анализ (таҳлил) қилиш жараёнига кўпроқ чап яримшар масъул бўлса, синтез (умумлаштириш) функциясини кўпроқ ўнг яримшар ўз зиммасига

олади;

4) таъсиротларни муайян изчилликда, босқичма-босқич тарзда идрок этиш чап яримшарга хос бўлса, бир вақтда, бир лахзада яхлит тарзда идрок этиш ўнг яримшарга хосдир;

5) мавҳум (абстракт)тушунчаларни идрокэтишда чап яримшар етакчилик қилса, аниқ-яққол (конкрет)нарса ва ҳодисаларни идрок этишга кўпроқ ўнг яримшар ихтисослашган.

Кейинчалик чап ва ўнг яримшарнинг тафаккур услубини И.П.Павловнинг олий нерв фаолияти типлари билан қиёслаш ишлари олиб борилди. Бир томондан, иккинчи сигнал тизими ва чап яримшар услубига эга бўлган “фикрловчи” типва иккинчи томондан, биринчи сигнал тизими ва ўнг яримшар услубига эга бўлган “бадий” тип ўртасида алоқадорлик борлиги аниқланди.

Юқорида келтирилган маълумотлар, яъни, тафаккур услуби, билиш жараёнларининг хусусиятлари ҳамдамия яримшарларнинг ўзаро муносабати, инсон мия яримшарлари концепциясининг асоси бўлиб ҳисобланади. Мана шу тасаввур мия функционал асимметрияси муаммосининг ҳар томонлама ўрганилишига, инсонларни чап ёки ўнг мия яримшарларининг етакчилик қилишига қараб типларга ажратиш каби ғояларнинг шаклланишига олиб келди.

Хулоса қилиб айтганда, мия функционал асимметрияси концепцияси бўйича анчагина илмий ва амалий тадқиқотлар ўтказилган бўлса-да, ҳозирги вақтда бу муаммони ҳар томонлама, тўлалигича ўрганилганлигини эътироф этиш жуда қийин.

Ўспирин-ёшларнинг ижтимоий муҳит шарт-шароитларига мослашувчанлик қобилиятларини ўрганишда уларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини, психофизиологик имкониятларини инобатга олиш жуда муҳимдир. Зеро, бош мия катта яримшарлари ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятининг ўзига хос жиҳатлари билан инсон билиш жараёнлари, тафаккур тарзи орасида узвий боғлиқлик мавжудлиги бугунги кунда ҳеч кимга сир эмас.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2019 йил 11 июлдаги ПҚ-4391-сон.

2. Ананьев Б. Г. Билатеральное регулирование как механизм поведения // Вопросы психологии. 1963. - № 5. - С. 81-98.

3. Бианки В. ЖИ. Механизмы парного мозга. ЖЛ: Наука, 1989. - 278с.

4. Доброхотова Т.А., Брагина Н.Н. Методологическое значение принципа симметрии в изучении функциональной организации человека // Функциональная межполушарная асимметрия. Хрестоматия. Под ред. Н.Н. Боголепова, В.Ф. Фокина. - М: Научный мир, 2004. - 728 с.

5. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOİY TARAQQIYOTIDA OILA MUHITINING O'RNI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

6. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

7. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

8. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>

## ИҚТИДОР ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА.

**Мажидов Жасур Бахтиярович,**  
Жиззах давлат педагогика институти

**Аннотация:** Ушбу мақолада иқтидор, иқтидорлилик тушунчаларининг психологик тавсифи, иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш ва уларга таълим-тарбия бериш муаммолари ҳақида мулоҳазалар юритилган.

**Таянч сўз ва иборалар:** иқтидор, иқтидорли бола, дифференциал ўқитиш, ижтимоий адаптация, психологик феномен

Мамлакатимизда амалга оширилаётган таълим ислоҳати, енг аввало ҳар томонлама етук баркамол авлодни вояга етказишга қаратилган. Ватанимиз келажаги бўлган иқтидор егаларини ўз вақтида аниқлаб, уларнинг камол топиши учун шароит ва имкониятлар яратиб бериш бугуннинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Дарвоқе “иқтидор”, “иқтидорли бола” каби тушунчалар замирида нималар ётибди? – каби саволлар туғилиши таабий.

Иқтидор ҳали ҳануз кенг аудитория жамоасига, болаларга, ўқитувчиларга ва кўплаб ота-оналарга топишмоқ бўлиб келмоқда. Кенг жамоатчиликка унинг нафақат илмий асослари балки, унинг ҳаётда намоён бўлиши, намоён бўлиш усуллари, ривожланиши ва ижтимоий тараққиёти қизиқтириб келади. Бугунги кунда иқтидорли болаларга ғамхўрлик – бу ертанги кундаги илмнинг, маданият ва ижтимоий ҳаётнинг ривожланишига бўлган ғамхўрликдир. Ҳозирги кунда иқтидорли болаларнинг ўз иқтидорларини намоён етишлари учун кўплаб йўллар ва таълим дастурлари ишлаб чиқилмоқда. Аммо иқтидорни диагностика қилиш, уларнинг барча ўқув босқичларида ривожланиши, болалар томонидан ўзининг иқтидорини англаб етиши ва ўзининг ижодий ривожланишига бўлган шахсий жавобгарлиги муаммолари мавжуддир.

Иқтидор масаласи билан чет ел олимлари ва Собиқ Совет олимлари шуғулланиб келишган. Хусусан, бир қатор америкалик олимлар Дж. Гилфорд, П. Торренс, Ф. Баррон, К. Тейлорлар шуғулланганлар. Психолог олимлар Дж. Керолл ва Б. Блум ғоялари асосида иқтидорли болаларни ўқитиш методикаси ишлаб чиқилган. Ўта иқтидорли болалар билан Ж. Брюно шуғулланган.

Собиқ Совет психолог олимларидан А.М. Матюшкин, Н.Б. Шумакова, Г.Д. Чистякова, В.С. Юркевичлар иқтидор масаласи билан шуғулланганлар.

XX асрнинг 70-йиллари бошларига келиб индивидуал фарқлар психологияси амалий фанга айланди. Тадқиқотлар тезлик билан таълим соҳасига кўчади. XX асрнинг 70-йиллари охири ва 80-йилнинг бошларига келиб амалий психология соҳаси иқтидор психологиясига ўтиб, унда болалик даврида иқтидорнинг намоён бўлишига тўсқинлик қилувчи ҳолатлар ва уларнинг сабаблари чуқур ўрганила бошланди.

Дж. Гилфорднинг амалий ишлари мактабни тамомлаётган иқтидорли болаларда баъзан оғир депрессия ҳолатининг вужудга келиши, ҳамда тенгқурлари ва катталардан ўз иқтидорини беркитиш ҳоллари маълум бўлди. Иқтидорли болалар мактабларда “дискриминация” ҳолатини дифференциал ўқитишнинг мавжуд емаслигидан ҳис етадилар.

70-йилнинг охирига келиб нафақат хусусий мактаблар балки, давлат мактаблари ҳам дифференциал ўқитиш тизимига ўта бошладилар. 80-йиллар бошларида иқтидорли болаларнинг имкониятлари, уларнинг келажагини башорат қилиш, улар учун қийин вазиятлар ва улардан чиқиш йўллари бўйича йирик халқаро дастур амалга оширилди. АҚШда иқтидорли ўсмирларнинг лидерлик даражасига еришишлари учун махсус курслар ташкил етилди.

Иқтидор бу сомон уюми ичида яширинган бир игнага ўхшайди. Унинг фаол ривожланиш даврини 2-5 ёшлари билан белгилайдилар. Ушбу ёш оралиғида шахслилик асослари ўрнатилади ва иқтидор ўзини кўрсата бошлайди. Унинг намоён бўлишини боланинг турли хил ва ноанъанавий фаолият турларига нисбатан иштиёки ошиб бораётганидан билиш мумкин. Ота-оналарнинг, тарбиячиларнинг ва ўқитувчиларнинг вазифаси еса боланинг интилишини ўз вақтида пайқаб, қўллаб-қувватлашдир.

Иқтидорли болаларнинг ўзига хос томони шундаки, улар жамиятда содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларни тушунишда сабаб-оқибат категориясига асосланадилар ва шунга яраша хулосалар қиладилар. Боланинг турли хил соҳалар борасидаги изланишлари бу енг муҳим дақиқа бўлиб, уни еътиборсиз ўтказиб юбориш мумкин емас.

Шунинг учун ҳам иқтидорнинг ривожланиши башорат қилиш муаммосига ўзгача ёндашув талаб этилади. Боланинг билишга бўлган фаоллиги характери ва унинг ривожланиш динамикасини муҳокама қилишга ёрдам берувчи методикалардан бири бу **“СОНА”** (спонтанное описание нерегламентированной активности) методикаси бўлиб ҳисобланади.

П. Торренсинг тадқиқотларида иқтидорли болалар интеллектнинг дастлабки ривожланиш босқичларидан тез ўтишлар ва ижодий бўлмаган барча ишларга қаршилик кўрсатишлар аниқланди. Бу ҳолат кўплаб муаммоларни туғдириб, ўқитувчилар томонидан қайсарлик, ялқовлик ва ақлсизлик деб баҳоланади. Ўқитувчининг унча юқори бўлмаган психологик тайёргарлиги бундай иқтидорли болаларни ўз билганича вазифани бажариши, жазавакилик ва қабул қилинган тартиб-қоидаларга бўйсунмаслик дея талқин этидилар. Ўқитувчилар орасида иқтидорли болалар ёрдамга муҳтож емаслар деган фикр юради. Мураккаблик еса ўқитувчининг ўз фанига нисбатан паст даражадаги тайёргарлиги, иқтидорли болалар билан ишлаш олмаслик, ўқув дастурларидаги камчиликлар ва ўқитувчиларнинг психологик билимларида ётади.

Бундан ташқари, ижодий тафаккурнинг ўзига хослиги атрофдагилар томонидан ҳулқ-атвордаги оғиш сифатида қабул қилинади. Иқтидорли болалар мактабда ўз вақтларнинг 2/3 қисмини бекорга ўтказиб, “интеллектуал бошбошдоқликни” намоён этидилар. Иқтидорли болалар ўз тенгқурларига қараганда ижтимоий адаптация жараёнини тез ўзлаштиридилар. Улар жамиятда вужудга келаётган янги ҳолатларга нисбатан жуда сезгир бўладилар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, иқтидор соф психологик феномен сифатида баҳоланади, бугунги ривожланиб бораётган замонда иқтидорни диагностика қилиш, уни намоён қилиш, башоратлаш, таълим бериш ва ривожланиши долзарб муаммолардан бири бўлиб саналади. Иқтидорли боланинг атроф-муҳит билан ўзаро тўғри алоқа ўрнатиши, унинг ўз иқтидорини янада ёрқин ва кенгроқ ривожланишига туртки бўлади.

Боланинг иқтидори гўдаклигидаёқ аниқлаш ва таълим - тарбияни шунга мувофиқ олиб бориш жуда муҳимдир. Шу ерда, қадимда донишмандларимиздан бири етти кунлик гўдакнинг ота – онаси тарбияни қандай бошлашни маслаҳат сўраб келишганда, улар етти кун кечикишганини айтганини келтиришимиз кифоя, зеро Ватанимизнинг ертаси бўлган иқтидор егаларини ўз вақтида аниқлаб, уларга қанот беришда биз ҳеч қачон кечикмайлик.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И.А.Каримов “Юксак маънавият- энгилмас куч” Тош ....2008 йил.
2. Грязева В.Г., Петровский В.А. «Одаренные дети: экология творчества». – Москва-Челябинск: ИПИ РАО, ЧГИИК, 1993 йил.
3. Рубинштейн С.Л. «Основы общей психологии». М., 1946 йил.
4. Юркевич В.С. «Проблема диагноза и прогноза одаренности в работе практического психолога». Школа здоровья. 1997 йил.
5. Акимов И., Клименко В., «О природе таланта». М., 1994 йил.
6. Клименко В. В. «Психологические тесты таланта». Харьков. Фолио, 1996 йил.
7. Лейтес Н. С. «Об умственной одаренности». М. Прос.,1960 йил.
8. Majidov, J. (2020). ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР–СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOYI TARAQQIYOTIDA OILA MUNITINING O'RNI. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХОДИСА СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
12. Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗARO МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>

Ҳайдарбек Ҳамдамов,

Жиззах давлат педагогика институти ўқитувчиси  
Жиззах давлат педагогика институти “Умумий психология”  
кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақолада психологик хавфсизликнинг муаммолари, тузилиши ва бу мавзу юзасидан истиқболдаги тадқиқотлар, инсоннинг жамиятда тўлиқ ҳимояланганлигини таъминловчи талаб ва сифатлар ёритилган. Илмий истеъмолга киритилмаган бир қатор психологик манбалар асосида ушбу муаммонинг истиқболдаги ечимлари таҳлил қилинди.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются проблемы, перспективы и структура психологической безопасности, требования и качества обеспечивающие полную безопасность человека в обществе. На основе привлечения многих ранее неиспользованных источников проанализированы основные направления и перспективные проблемы этой проблемы.

**Annotation:** This article describes problems, perspectives, and structure of psychological safety, requirements, features and properties that ensures complete safety of a human being in a society. Basic directions and perspective problems of psychological safety have been analyzed with the help of new sources.

**Таянч сўз ва иборалар:** аутентиклик, психологик саломатлик, психологик хавфсизлик, шахснинг автономлиги, спонтанлик, ҳимоя механизмлари, нотўлиқлик комплекси, ижтимоий ихтиёрсиз ўрганиш, ўзини ўзи намоён қилиш, психологик жароҳат, шахснинг ҳимояланганлиги, бардошлилик, чидамлик, муҳит ва шахс психологик хавфсизлиги.

**Ключевые слова и выражения:** аутентичность, психологическая безопасность, психологическое здоровье, автономность личности, спонтанность, защитные механизмы, комплекс неполноценности, социальное научение, самоактуализация, психологическая травма, защищенность личности, сопротивляемость, жизнестойкость, психологическая безопасность среды и личности.

**Key words and expressions:** authenticity, psychological safety, psychological health, autonomy of personality, spontaneity, defense mechanisms, inferiority complex, social learning, self-actualization, psychological trauma, resistance, hardiness, psychological safety of social environment, psychological safety of personality.

Ҳозирги кунда жаҳоннинг кўплаб олимлари психологик хавфсизлик мавзусини ҳар томонлама тадқиқ этмоқдалар. Бу муаммонинг тобора долзарб масалага айланиб бориши аввало жамиятда психологик саломатлик билан боғлиқ муаммоларнинг кўпайиб бораётганлиги билан изоҳланади. Замонавий дунёда техноген цивилизациянинг тобора ўсиб бораётганлиги, айниқса кенг қўламдаги ахборот тизими технологияларининг жадал суръатларда билан ривожланиб кетаётганлиги инсонни ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, миллий, диний, экологик ва технологик каби омиллар билан боғлиқ бир қатор стрессоген ҳолатлар гирдобига ташлаб қўймоқда. Бундай ташқи омиллар кўп ҳолларда глобал характерга эга бўлиб, инсоннинг маънавий-психологик саломатлигига жиддий хавф солмоқда.

Психологик хавфсизлик бу – инсоннинг ўз психикасини ҳимоя қилиши, психик соғлигини мустаҳкамлаши, эмоционал-иродавий барқарорликка етишуви ҳамда соғлом тафаккур ва хулқ-атворга эришиш йўлида қўллайдиган чора-тадбирларидир. Шахс психологик хавфсизлигини оннинг унинг иродаси ва истагига қарши ўлароқ психик ҳолат ҳамда хулқ-атвори салбий томонга ўзгартира олишига қарши ҳимояланганлик сифатида тушуниш мумкин [3, 4-5 бет].

Психологик хавфсизлик ўз ичига психик касалликлар профилактикаси, стресслар ва фрустрацияга юқори чидамлик, шахснинг муттасил психологик тараққиёти, психологик

маданият, дунёни адекват идрок этиш (инсоннинг ўзига ўзи, бошқа инсонларга ва умуман атроф-муҳитга муносабати) кабиларни ўз ичига олади. Психологик хавфсизликда энг муҳим аспект шахснинг автономлиги, яъни шахс эркинлигини алоҳида ажратиб кўрсатишимиз мумкин. Автономлик ўзида айна дамни (ҳозир ва шу ерда) адекват, иллюзияларсиз англаб туриш, яқин алоқаларни ўрната олиш имкониятига эга бўлиш, ҳамда спонтанлик кабиларни мужассам этади. Спонтанлик бу – шахснинг ташқи таъсир ва қолипларсиз эмас, балки ички мазмун, имконият ва қувват билан ҳаракатлана олишидир. Спонтан бўлмаган одам ўзининг мансублигини (жамият, миллат, оила, коллектив ва ҳ.к.), дахлдорлигини ҳамда яхлитлигини ҳис эта олмайди.

Таъкидлаш жоизки, инсоннинг социумда тўлиқ ҳимояланганлигини таъминловчи талаб, хусусият ва сифатларнинг конкрет тўпламини ажратиб кўрсатиш мураккаб вазифа саналади. Аммо, умумий тарзда бу имконни берувчи муайян бир индивидуал хусусиятларни мисол сифатида келтира оламиз. И.А.Баеванинг таъкидлашича, шахснинг психологик хавфсизлигига бағишланган замонавий илмий-тадқиқот ишлари турли хил талқинлардан иборат. Унинг фикрича, айрим тадқиқот ишларида хавфсизлик бу ўз жонини сақлаш имконияти ва қобилиятини таъмин этувчи муайян бир тизимнинг алоҳида бир сифати бўлса, бошқа илмий ишларда ушбу масалага ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояловчи кафолатлар тизими сифатида қаралади.

Шу билан бирга, шахснинг психологик хавфсизлиги бу - маънавий-руҳий ва инсон борлигига дахлдор бошқа тизимларни сақлаб қолиш ҳамда уларнинг нормал ишлаб туришини таъмин этишга йўналтирилган таърифлардан иборат эканлигини кўпчилик олимлар таъкидлайдилар.

Муҳитнинг психологик жиҳатдан нисбатан хавфсиз бўлишида керакли шарт-шароитларни яратиш муаммосини бир нечта олимлар турли даврларда ўрганганлар. Муҳит психологиясининг туб моҳиятини англаб етиш муаммосини тадқиқ этишга В.В.Авдеев, Б.Г.Ананьев, Г.М.Андреева, И.В.Дубровина, Е.И.Исаев, Е.А.Климов, Б.Ф.Ломов, В.А.Левин, М.В.Осорина, А.А.Реан, В.И.Слободчиков, Д.И.Фельдштейн, Э.Фромм, Д.Б. Эльконин, В.А.Ясвин каби олимлар катта ҳисса қўшганлар.

И.А.Баева, М.Р.Битянова, Н.В.Груздева, Я.А.Коменский, Г.А.Мкртычан, В.И.Панов кабилар эса психологик хавфсиз таълим муҳитини моделлаштириш, шахс ўзини ҳимояланганлигини ҳис этиши, ўзининг асосий эҳтиёжларини қондира олиши ҳамда нормал фаолият юрита олиши учун тегишли шарт-шароитларни яратиш масалалари билан шуғулланганлар.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, психологик иқлимни яхшилаш, муҳит психологизацияси, устозлар ва ота-оналарнинг педагогик ва психологик компетентлигини ошириш каби тадбирлар бола шахсини психологик жароҳатларсиз ижобий маънодаги тараққиётга ҳар доим ҳам олиб келавермайди. Бу мақсадга етишиш учун боланинг индивидуал хусусиятларини, унинг шахсига доир сифат ва хусусиятларни, шунингдек иродавий-психологик барқарорлик ва бардошлиликни намоён этишга бўлган мойиллигини ҳам ҳисобга олиш керак бўлади. Буларнинг барчаси шахс психологик хавфсизлигини аввало ўқув-тарбиявий жараёнда кўриб чиқиш заруратини келтириб чиқаради.

“Шахс психологик хавфсизлиги” тушунчасининг бир қанча талқинлари мавжуд. Баъзи олимлар шахснинг психологик хавфсизлигини таҳдидларнинг адекват инъикоси, шунингдек инсон ёки гуруҳларнинг психологик тизим сифатидаги яхлитлиги ҳамда барқарорлигини сақлаш мақсадида хулқ-атворнинг конструктив регуляциясига алоқадор қонуниятларни ўрганувчи фаннинг алоҳида соҳаси деб қарайдилар. Бундай талқинда “ташқи таҳдид” ва “хавфли вазият” кабилар марказий феномен ҳисобланади.

Бола шахсининг психик жароҳатлар ҳамда психологик ҳимояланмаганликка олиб келувчи ташқи омилларни тадқиқ этишга бутун диққатни қаратиш зарурияти юқоридаги тадқиқот йўналиши билан белгиланади.

Фанда психологик хавфсизликни шакллантириш борасида бир нечта ёндашувлар мавжуд.

Психодинамик таълимотларнинг намояндалари ушбу масала юзасидан катта аҳамиятга эга бўлган фаразларни илгари сурганлар. Масалан, болалар психоанализига асос солган Анна Фрейд шахс психологик хавфсизлигини психологик ҳимоя механизмлари билан ишлаш воситасида шакллантиришни таклиф этади. Индивидуал психология тизимини ишлаб чиққан А.Адлер психологик хавфсизлик нотўлиқлик комплексини енгиб ўтиш билан

шакллантирилади деб ҳисоблаган. Неофрейдизмнинг ёрқин вакилларида бири Карен Хорни шахснинг ижтимоий-маданий назариясида болаликдаги икки эҳтиёжни – қониқиш (мамнунлик) ҳисси ва хавфсизликка бўлган эҳтиёжларни ажратиб кўрсатади. Унинг фикрича, боланинг психик ривожланишида хавфсизликка бўлган эҳтиёж (хуш кўрилиш, азиз ва ардоқли бўлиш, адоватли дунёдан ва турли таҳдидлардан ҳимояланганлик) асосий ўрин тутаяди. Ушбу эҳтиёж қондирилмаган тақдирда болада ожизлик, кўрқув ва айбдорлик ҳисси қабилар ривожланади. Бундай кечинмалар айни пайтда ва келажакда атрофдагилар билан ўзаро муносабатлар давомида табиийки намоён бўлади.

Ривожланиш психологиясига катта ҳисса қўшган Э.Эриксон эса бу мақсадга қарор топиб бўлган хавфсиз хулқ-атвор моделларини тўғрилаш ва мукамаллаштириш орқали эришиш мумкинлигини таъкидлаган.

Бихевиориал ёндашув вакиллари ҳам бу борада аҳамиятли фаразларни илгари сурганлар. Масалан, бихевиоризм таълимотининг асосчиси Д.Б.Уотсон бир қатор психотренингларни ўташ орқали психологик хавфсизликни таъминловчи хулқ-атворни шакллантиришни тақлиф этади. Бихевиорал терапия асосчиси Мэри Кавер Джонс болада хавф-хавфсизлик ҳолатининг кечишидаги субъектив характерни инобатга олиш лозимлигини таъкидлаган. А.Бандура бу мақсадга ижтимоий ихтиёрсиз ўрганиш орқали эришиш мумкинлигини айтган бўлса, Б.Скиннер конструктив хулқ-атворни мустаҳкамлаш (подкрепление) лозимлигини уқтиради.

Психологик хавфсизликни шакллантириш назариясига гештальтпсихология мактабининг вакиллари ҳам сезиларли ҳисса қўшганлар. Психологик хавфсизликни таъминлаш назариясининг такомиллашувида К.Левиннинг ҳаётий макон концепцияси муҳим аҳамият касб этди. Бу концепция унинг машҳур “майдон назарияси”дан олинган.

Экзистенциал-гуманистик йўналиш тарафдорлари (А.Маслоу, К.Роджерс, В.Франкл, С.Мадди ва бошқалар) шахснинг психологик хавфсизлигини таъминлаш масаласи бўйича бир қатор оригинал фикр-мулоҳазаларни келтириб ўтганлар. Шахснинг психологик хавфсизлиги муаммосини гуманистик психология вакиллари ижтимоий ўзини ўзи намоён қилиш орқали хавфсизликка доир асосий эҳтиёжларни қондиришга интилаётган инсоннинг ички имкониятлари тарзида тушунтириб беришга ҳаракат қиладилар. Гуманистик психологияда бу масала инсоннинг ўз тақдирини ўзи белгилай олиши, фаол ҳаётий тажрибани орттира олиши, муттасил ривожлана олиши, хулқ-атворнинг анланган тизими билан таҳдидларга жавоб бера олиши каби ижобий хусусиятлар билан белгиланади. Мазкур йўналишнинг йирик вакили А.Х.Маслоу ўзи ишлаб чиққан мотивациянинг иерархик моделида хавфсизликни алоҳида босқич сифатида келтириб ўтади. Агар физиологик эҳтиёжлар нисбатан яхши қондирилса, кўплаб янги эҳтиёжлар юзага чиқади, ва биз уларни хавфсизлик эҳтиёжлари сифатида таснифлашимиз мумкин (хавфсизлик; барқарорлик; боғлиқлик; ҳимояланганлик; кўрқув, хавотир ва тартибсизликдан халос бўлиш; тузилиш, яхлит тизим, тартиб-қоидалар ва ҳ.к.). Етуқлик давридаги невротик шахсларнинг муайян типларида хавфсизликка интилиш мотивлари кучли бўлади. [6, 39-40 бет].

Бир қатор илмий ишларни таҳлил этиш натажасида шахснинг психологик хавфсизлигига доир бир қатор ғоя, фараз ва таърифларни кўриш мумкин. Уларни қуйидаги компонентларга бўлган ҳолда таснифлаш мақсадга мувофиқ:

1. Шахснинг муҳитдаги, унинг психологик жароҳат олиш эҳтимоли юқори бўлган даврдаги эмоционал-иродавий барқарорлиги;

2. Ички ва ташқи таъсирларга бардошлилик;

3. Шахснинг ҳимояланганлиги ёки ҳимояланмаганлигига доир психик кечинмалари;

“Хавфсизлик фалсафаси” ўқув қўлланмасининг муаллифи Н.Н.Рибалкин хавфсизликнинг моҳияти ва табиатини фалсафий англашга ҳаракат қилади. У хавфсизлик фалсафасининг шаклланиш шарт-шароитлари ва асосларини ишлаб чиқади. Н.Н.Рибалкин хавфсизликни турли салбий ҳодисаларда барқарорликнинг сақлаб қолиш учун шахсда намоён бўладиган турли моддий ва ижтимоий тизимлар деб тушунади. Болалар психологияси соҳасида йирик олим Л.И.Божович шахс хавфсизлигини аввало ўз кучига ишониш ва ўзига ўзи баҳо бериш билан изоҳлайди. А.Н.Леонтьев бу масалада шахслараро муносабатларни ўрната олиш муҳим рол ўйнашини таъкидлаган. Бу таъриф ва фаразларнинг ҳаммаси шахснинг муҳитдаги, унинг психологик жароҳат олиш эҳтимоли юқори бўлган даврдаги эмоционал-иродавий барқарорлигига қаратилган.

Шахнинг психологик хавфсизлигини таъминлашда “Ички ва ташқи таъсирларга бардошлилик” ҳам катта аҳамиятга эга. Рус олими И.А.Баеванинг таъкидлашича, хавфсизлик шахс хусусияти сифатида тушунилиб, унинг ички бардошлилик ресурслари ҳисобига ташқи деструктив таъсиротлардан ҳимояланганлиги билан тавсифланади. Яна бир рус олими Л.А.Регуш ўз-ўзидан қонқиш ҳисси, ўз-ўзига ишонч, шод-хуррам ҳолат (экспрессивлик), эмпатияга мойиллик кабиларни шахс хавфсизлигини таъминлашнинг асосий шартлари деб билади. Бу йўналишда Калифорния ижтимоий экология Мактаби профессори С.Маддининг мулоҳазалари алоҳида ўрин эгаллайди. С.Мадди чидамлилигининг (бардошлилик) диагностикаси ва фасилитацияси масалаларини чуқур тадқиқ этади. У П.Тиллихнинг “Бор бўлиш жасорати” категориясини янада ривожлантирди. С.Мадди шахснинг психологик хавфсизлиги масаласида назорат ҳиссиёти ҳамда жалб этилганлик даражаси билан тушунтиради. Бардошлиликнинг учта нисбатан автоном компонентини ажратиш кўрсатиш мумкин: жалб этилганлик, назорат, таваккалчиликни қабул қилиш. Ушбу компонентларнинг, ва умуман бардошлиликнинг ифодаланиши стресс вазиятларида ички тарангликнинг пайдо бўлишига тўсқинлик қилади [7, 160-168 бет].

Яна бир тадқиқотчи С.Ионеску эса С.Мадди таъбири билан айтилган “Жалб этилганлик” да ҳаётий мақсадларнинг ҳамда у ёки бу вазиятда ўзини қандай тутиш кераклиги борасидаги тасавурларнинг мавжуд бўлиши шахснинг психологик хавфсизлигини таъминлаб беришини таъкидлаган. Бу борада когнитив тараққиёт бўйича мутахассис Н.Гармезининг олиб борган илмий изланишлари алоҳида аҳамиятга молик. У “Чидамлик” (бардошлилик) муаммосини чуқур ўрганган олим саналади. У психологик хавфсизликни мулоқотмандлик, коммуникатив кўникмалар ҳамда муайян бир муаммони ҳал этишда позитив тажрибанинг мавжудлиги билан боғлайди.

Бизга маълумки, шахснинг психологик хавфсизлиги индивиднинг позитив психик ҳолатларни намоён этишида намоён бўлади. Бу ерда энг аввало хавотирлик даражасига шахснинг нечоғли ҳимояланганлигини кўрсатиб берувчи асосий мезон сифатида қаралади. Бу муаммо Қозон университети профессори А.О.Прохоровнинг илмий ишларида атрофлича ўрганилган.

Н.Л.Шликова шахс психологик хавфсизлигини субъективлик (когнитив ва эмоционал жараёнлар) ва объектив омилларнинг (корпоратив маданият) детерминантлашуви даражаси сифатида тадқиқ этади.

Шахс психологик хавфсизлигини таъминлаш мавзуси бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқотлар орасида профессор И.А.Баева марказий ўринлардан бирини эгаллайди. У А.И.Герцен номидаги Россия давлат педагогика университети қошидаги “Таълимда психологик маданият ва хавфсизлик” илмий-тадқиқот лабораториясини бошқариб келмоқда. Мазкур лабораторияда асосан қуйидаги йўналишларда илмий изланишлар олиб борилади:

1. Психологик хавфсизлик ва таълим муҳити экспертизаси;
2. Таълимда ва жамиятда психологик маданият;
3. Инсонларнинг ўзаро муносабатларида психологик зўравонликнинг профилактикаси ва коррекцияси;
4. Таълим муҳитида психологик хавфсизлик ва умуман шахс психологик хавфсизлигига тиргак бўладиган психотехнологияларни яратиш;
5. Инсоннинг хавфсизлиги ва хотиржамлигини таъминловчи психологик ресурслар.

Лаборатория ходимлари хавфсизлик психологиясининг структурасини икки аспект бўйича тадқиқ этадилар: муҳит психологик хавфсизлиги ҳамда шахс психологик хавфсизлиги. “Ижтимоий аспектда муҳит психологик хавфсизлиги индивидларнинг ўзаро муносабатларида психологик зўравонликнинг намоён бўлмаслиги, ўзаро ишонч руҳидаги мулоқотга доир асосий эҳтиёжларнинг қондирилиши, муҳитнинг референт аҳамиятини пайдо бўлиши ва ривожланиши ҳамда гуруҳ аъзоларида психологик ҳимояланганликнинг таъминланиши билан белгиланади. *Шахс психологик хавфсизлиги* унинг муайян параметрлар билан муҳитда барқарорликни сақлай олиш қобилияти, ички ва ташқи деструктив таъсиротларга бардошлилигида намоён бўлади. Шахс психологик хавфсизлиги конкрет ҳаётий вазиятда шахснинг ҳимояланганлиги/ҳимояланмаганлигига оид кечинмаларида акс этади. И.А.Баева шахснинг барқарорлиги тавсифига алоҳида урғу беради. Бугунги кунда янги йўналиш – хавфсизлик психологиясини пайдо бўлганлигини эътироф этиш учун барча асослар етарли. Бу йўналишнинг рамкасида назарий тадқиқотлар билан бирга турли ижтимоий соҳаларда психологик хавфсизликни таъминлаш борасида амалий дастурларни ишлаб чиқиш ишлари

ҳам олиб борилмоқда [2, 66-бет].

И.А.Баева таълим тизимида ва ижтимоий муносабатларда психологик хавфсизлик, психологик хавфсизликнинг бузилиши вазиятида инсонни етаклаш, таълимдаги муҳитнинг психологик хавфсизлиги каби муҳим масалаларни тадқиқ этган. Унинг фикрича, таълимдаги муҳитнинг психологик хавфсизлиги шахс ривожланишининг асосий шарт ҳисобланади. Олима психологик хавфсизликни шахс юритаётган фаолият туридаги натижадорлик кўрсаткичи орқали кўриб чиқиш лозимлигини уқтиради.

Халқимизнинг менталитетига диний ақидалар ва расм-русумлар асрлар мобайнида сезиларли таъсир ўтказиб келаётган экан, бу муаммони ислом дини рамкасида ҳам тадқиқ этиш ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Шахс психологик хавфсизлиги муаммосини ислом дини рамкасида тадқиқ этишда куйидаги истикболли масалаларга алоҳида эътибор бериш долзарб аҳамиятга эга:

1. Ислом дини қадриятлари асосида шахснинг психологик хавфсизлиги муаммосини назарий жиҳатларини ўрганиб чиқиш;

2. Шахснинг шаклланиши ва ўзини ўзи ривожлантиришида ҳамда психологик хавфсизликни таъминлашда психологик ҳимоя механизмларининг конструктив аҳамиятини кўрсатиб бериш;

3. Ислом антропологиясида тўпланган билимлар ва амалий тажрибани “психологик ҳимоя”, “маънавий-психологик соғлик”, “шахснинг психологик ва психофизик соғлиги” каби тушунчаларни интеграциялашуви натижасида “шахс психологик хавфсизлиги” муаммосининг мазмун-моҳиятини кенгайтириш;

4. Илмий психология, тиббиёт, ислом антропологияси ва тасаввуф фалсафасидаги инсон ва унинг камолотига доир ғоя ва қарашларни ўрганиб чиқиш асосида шахснинг яхлит ва кўп ўлчамли психологик ва психофизик феномен сифатидаги саломатлик моделини ишлаб чиқиш.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, юқорида келтириб ўтилган ёндашувларни умумлаштириш натижасида шахс психологик хавфсизлигининг янада натижадор ресурсларини белгилаб олиш мақсадга мувофиқ, долзарб иш ҳисобланади.

### Адабиётлар

1. Баева И.А. Психология безопасности: история, становление, перспективы. Национальный психологический журнал. № 1 (2) сентябрь 2007.

2. Колесникова Т.И. Психологический мир личности и его безопасность. Москва, 2001.

3. Рыбалкин Н.Н. Философия безопасности: учебное пособие. – М.: МПСИ, 2006.

4. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности / СПб.: Питер, 2003.

5. Abraham H. Maslow. Motivation and personality. 1954 by Harper & Row, Publishers, Inc.

6. Baer, Markus; Frese, Michael (1 February 2003). “Innovation is not enough: climates for initiative and psychological safety, process innovations, and firm performance”. *Journal of Organizational Behavior*. 24 (1): 45–68.

7. Feldman, Robert S. Understanding psychology. New York.: 1996

8. Maddi S. R. Hardiness: The courage to grow from stresses // The Journal of Positive Psychology. — 2006.

9. Majidov, J. (2020). ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР-СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

10. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOİY TARAQQIYOTIDA OILA MUNITINING O'RNI. *Архив Научных Публикаций JSPI*. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

11. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

12. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТимоий Психологик Ҳодиса Сифатида. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>

13. Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>

TECHNICAL SCIENCES

DESIGN STRUCTURAL IMPROVED AND RESOURCE ROLLER SUPPORT BELT CONVEYOR

**Jumaev Akbarjon Sayfullaevich**

doctoral

Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

akbarjon.jumayev@mail.ru +99893 462 6547

Navoi, Uzbekistan

**Juraev Anvar Juraevich**

Doctor of Technical Sciences, Professor

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

anvardjurayev1948@mail.ru+99893 181 3804

Tashkent, Uzbekistan

**Dustova Mehriniso Parmanovna**

trainee researcher

Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Mehri 0625@bk.ru +99893 956 5025

Navoi, Uzbekistan

**Abstract:** A new design of parts has been developed using lightweight high-strength plastic and composite materials of flexible elements instead of rolling bearings, which ensure smooth rotational movement in the roller mechanisms of belt conveyors. The operating time of roller belt mechanisms with a belt conveyor used in the mining industry is 30,000 hours. When a new design part is used instead of a rolling bearing, the operating time of the movement is 35,000 hours. Therefore, it is recommended to recommend the manufacture of a part from high-strength plastic and a composite elastic element.

**Key words:** mechanism, bearing, conveyor, rolling, flexible, graphite-capralon, kinematics, roller, base, grinding, technology, research

Today in the Republic it is necessary to increase the production of metal processing and metalworking, as well as to increase the quality of engineering products and control over them, is the main task of today. If we consider the example of the Navoi machine-building plant, then the production of tools and accessories at the “tool” shop is growing every day in quantitative and qualitative terms. As a result, it was found that the production of metal and non-metal workpieces is at a high level. This, in turn, through many programs contributes to the development of society.

In the mining and metallurgical industry today, composite elastic materials are widely used. As a result, the use of metals in the production of machine mechanisms decreases, which leads to economic efficiency of production. By using high-strength composite materials and plastics, that is, using rubber, graphite-capralon, fluoroplastic, corporals, and others, certain victories are achieved in production [1].

The advantage of using composite elastic materials and plastics is that using them it is possible to produce some elements of machine mechanisms with a relatively low cost and high strength. On the above roller (Fig. 1), instead of a rolling bearing, a sliding support made of graphite-caprolon material is used, which gives a direct circular motion and serves as a support. We choose graphite-capralone because it is heat resistant, hard and heat resistant.

We know that bearings that are sleeve bearings are higher in terms of the coefficient of friction ( $f = 0.0015-0.006$ ) than torsion bearings, and due to the fact that the moment of renewal is many times higher (5 ... 10 times), we are a manufactured part from graphitecapralone we open three semicircular grooves for part of the shaft journal. This, in turn, allows to reduce by several times the coefficient of friction and the moment of renewal of the produced part [2].

When the sliding axis is operating, the shaft is mainly represented as a type of wear, that is,

the liquid on the surface of the working part must be separated from the working area of the oil. The part that works on sliding must have ideal conditions for normal operation. When the fluid is rubbed, the surfaces will be separated by oil.


When the above conditions are met, the oil layer takes on external loads, as a result of which there is no surface contact and friction. And the coefficient of friction will be  $f = 0.001 - 0.005$ . If the above conditions are not met, the friction coefficient for dry friction will be  $f = 0.1 - 0.2$ . Hence, as a result of dry friction, the wear-resistant durability of the sliding bearing (graphite-capralone) decreases. .

We know that for the formation of a friction regime in a liquid, we need and must meet three conditions:

With mutual friction, the gap between the surfaces should be wedge-shaped.

It is known that the oil has sufficient viscosity to ensure continuous filling of voids.

The movement between the nodes should be equal to the hydrodynamic pressure of the external load on the oil layer.



**Roller support (Belt conveyor)**

A rolling bearing is the part that causes the roller mechanism to rotate and acts as a support relative to the axis. As a result of the external environment (dust, water, high humidity), the roller mechanism stops due to uneven movement or hardening of the grooves and balls of the rolling bearing. To prevent this, instead of a rolling bearing, we use a flexible element and plastic (graphite caprolone), which acts as a sliding base about the axis.

The roller mechanism will need to create new types of parts that act as a sliding base for the composite flexible element, as well as develop methods for their structural, kinematic and dynamic calculations. For this purpose, the development of new schemes for the design, modeling and calculation of machines and mechanisms, it is necessary to see the effectiveness of research to optimize operational characteristics, analysis and synthesis of mechanisms, the creation of new designs of roller mechanisms with flexible joints and flexible elements.

The law of motion of the conveyor units shows us that in roller mechanisms with the absence of elastic elements in the supporting part where rotational movement occurs, the amplitude of the oscillation reaches  $0.46 \text{ rad}$ , with the presence of elastic elements with a unit coefficient of  $1.2 \cdot 10^2 \text{ Nm / rad}$  it reaches  $0.41 \text{ rad}$ . In this case, the unit coefficient of the sliding support with a roller mechanism increases by  $3.0 \cdot 10^3 \text{ Nm/rad}$ , and the displacement of the angle of rotation by  $0.16 - 0.21\pi$ .

The operating conditions and characteristics of belt conveyors of mining enterprises are considered, special requirements for the design of their main units are established. Constructions of roller mechanisms of belt conveyors, on the basis of design solutions, a projected part and a protective casing and sealing devices that act as a sliding base were developed. The importance of lubricants for increasing the frequency of operation of a part serving as a sliding base was considered. Many factors have been analyzed to quickly repair parts that act as a slide bearing in the idler roller mechanism.

### **References**

1. A. Juraev et al. Theory of machine mechanisms. Ed. G. Gulom 2004 p. 582.
2. E. T. Grigoriev Calculation and design of rubber shock absorbers. M., MashGIZ, 1960, p. 157.
3. Makarov A. I. and others. Calculation and design of spinning machines. Mechanical engineering, 1963 512 p.
4. Juraev A. J., Davidbaev B. N., Zhalyaev A. A., Mirzakhanov Yu. U. Flat belt transmission with tension roller. // Patent UZ. Res. UZIAP 4228, 31.03.97.
5. Abdullaev AV, Juraev A., Mirakhmidov J. Analysis of grate vibrations on an elastic foundation with nonlinear stiffness, J. Izvestiya VUZ, Technology of the textile industry, No. 5, 2008

**Международная научно-практическая конференция**

**СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ  
АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ**

**(January-February 2021)**

**г.Ростов-на-Дону, Россия**